

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Fakultet dekani
_____ f.f.n. M.K.Temirboyev
“ _____ ” _____ 2019 - yil

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi bakalavr ta‘lim yo‘nalishi

IV kurs 402-guruh talabasi

Ochilov Habibullo Saydulla o‘g‘lining

**O‘ZBEKISTONNING JAHON SIVILIZASIYASIGA QO‘SHILIB
BORISHI VA UNING INSON OMILIGA IJOBIY TA‘SIRI**

mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar
_____ Z.Boytemirova
Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi
kafedrası kata o‘qituvchisi, f.f.n.

Taqrizchilar:
_____ B.J.Shamsiddinov
Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi

_____ Ya.X.Alimova
Qo‘qon tibbiyot kolleji ijtimoiy gumanitar kafedrası katta o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası mudiri
_____ M.M.Aminova
“ _____ ” _____ 2019 - yil

Qo‘qon - 2019

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I-BOB. O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga qo'shib borish (integrasiya) jarayonini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari	
1.1. Integrasiya jarayoni tushunchasi: mohiyati va mazmuni.....	8
1.2. O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga integrasiyalashuvi.....	15
1.3. Hozirgi davr halqaro munosabatlarning g'oyaviy-mafkuraviy tasnifi.....	27
II-BOB O'zbekistonda globallasuv va integrasiyalashuv jarayonida inson manfaatlarini ta'minlash vazifalari	
2.1. Jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvning inson va jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimida namoyon bo'lishi.....	35
2.2. Globallasuv shartida O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlashning usullari va vositalari.....	46
2.3. O'zbekistonda inson va uning qadrini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari.....	51
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab integrasiya va globallashuv jarayoni tez rivojlanmoqda. Bu jarayon nafaqat yangi mustaqil davlatlar, balki dunyoning rivojlangan davlatlari uchun ham jiddiy ilmiy va amaliy qarashlarni shakllantirish va bu jarayonda ishtirok etishning eng optimal yo'llarini ishlab chiqish davridir. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatiga kirib borishi tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri, deb belgilandi. Hamkorlikdagi ochiqlik siyosati chet ellik sarmoyadorlarga, qolaversa, barcha sohalardagi hamkorlikka erkin imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda mamlakatimiz jahon maydonida iqtisodiy salohiyati hamda ilmiy-texnikaviy imkoniyatlari bilan munosib o'rin egallab turibdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak — bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv — bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir"¹.

Shunday sharoitda jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvni yanada chuqurlashtirish O'zbekiston oldida turgan muhim vazifalar qatoriga qiradi. "Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalklar o'rtasidagi integrasiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investisiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalarining, ilmfan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 111 b.

sivilizasiylararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam qo'rsatish imkoniyatlarining ortishi — tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda”².

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon sivilizasiyasidagi integrasion jarayonlarning inson va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi o'rni masalasi barcha davrlarda olimlarni qiziqtirib kelgan. MDH doirasida jahon sivilizasiyasidagi integrasion jarayonlarning g'oyaviy-mafkuraviy tadqiqi I.V.Volovik, S.D.Batomunkuev, T.V.Volkova, B.N.Kagirov, I.V.Ershova, L.G.Vasil'eva, O.E. Kul'bakina, S.A.Trofimova, A.M.Egor'ichev kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Mamlakatimiz olimlarining shu sohaga daxldor ishlari E.Z.Nuriddinov tomonidan “Mustaqillik sharoitida O'zbekistonning Evropa mamlakatlari bilan hamkorligi: shakllanishi, rivojlanishi, muammolari” mavzusida doktorlik dissertasiyasi yoqlandi³. Muallif O'zbekistonning Evropa mamlakatlari bilan hamkorligining tarixiy jihatlarini tadqiq etadi. Mazkur mavzuga bevosita tegishli ishlardan biri A.G. Xollievaning EI ning birgina a'zosi – Buyuk Britaniya bilan o'zaro hamkorlik masalalariga bag'ishlangan nomzodlik dissertasiyasidir⁴. U.Yu. Uskenboev esa o'z monografiyasida EIning O'zbekiston bilan hamkorligini umumiy jihatdan tahlil etadi. X.Yunusovning “Evropa Ittifoqi huquqi” nomli o'quv qo'llanmasida Evropa davlatlarining huquqi, EI va O'zbekiston hamkorligiga oid huquqiy hujjatlar yoritiladi⁵. Bu sohada mamlakatimiz olimlarining ichida G.I.Karimovanning dissertasiyasi alohida o'rin tutadi. Unda muallif integrasiyaning asosiy konsepsiya va yo'nalishlarini tadqiq etadi. Mamlakatimiz siyosatshunoslari A.Qosimov, I.Vas'kin, A.Rasulov, A.Bedrinsev, A.Oqilovlarning ishlarida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyasi va xalqaro iqtisodiy munosabat masalalari u yoki bu jihatdan yoritiladi. Ammo Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlarda mintaqaviy

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 111 b.

³ Nuriddinov E. Z. Mejdunarodnoe sotrudnichestvo Uzbekistana so stranami Evropy v usloviyax nezavisimosti: stanovlenie, razvitie, problemy. – Dis... dokt. istor. nauk. – T., 2000. Avtoref. dis... dokt. istor. nauk. – T., 2000. – 57 s.

⁴ Xolliev A. G. Ekonomicheskie, nauchno-texnicheskie i kul'turnye svyazi nezavisimogo Uzbekistana s Velikobritaniyey i SShA. – Dis... kand. istor. nauk. – T., 1998. Avtoref. dis... kand. ist. nauk. – T., 1998

⁵ Yunusov X. Evropa Ittifoki huquqi // T.: JIDU, 2006. – 230 b

integrasiya muammolarigina tahlil etiladi. Bu o'rinda mintaqaviy integrasiya masalalarini tadqiq etayotib, biz uchun F.Kamolovning "mintaqada integrasion jarayonlar stixiyali, qarama-qarshi elementlarga ega, bu esa, o'z navbatida, bunday salbiy holatlarni o'rganish va ularni bartaraf etishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi" degan fikri alohida diqqatga sazovordir. V.Meshcheryakov O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi masalalariga to'xtalib o'tadi va bu esa ko'p jihatdan ilmiy mushohadaga chorlaydi. D.Ortiqov, A. Gegashidze esa TRASEK ni Evropa va Markaziy Osiyo hamkorligining eng muhim vositalaridan biri deb qarashadi.

Shuningdek, bugungi kunda O'zbekistonni jahon sivilizasiyasiga qo'shilib borishi (integrasiyalashuvi) va uning inson omiliga ta'sirining g'oyaviy-mafkuraviy asoslari bilan bog'liq masalalarning ba'zi ijtimoiy-falsafiy jihatlari M.Quronov, Q.Nazarov, B.To'ychiev, S.Mamashokirov, A.Ochildiev, F.Musaev kabi olimlarning asarlarida ilmiy-nazariy tahlil qilinganini ko'rish mumkin. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonni jahon sivilizasiyasiga integrasiyalashuvining g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga oid dolzarb vazifalar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning ustuvor yo'nalishlari kabi masalalar O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida izchil rivojlantirib borilganini ta'kidlash zarur⁶. Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili O'zbekistonni jahon sivilizasiyasiga qo'shilib borishi va uning inson omiliga ijobiy ta'siri mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida alohida olingan holda o'rganilmaganini ko'rsatadi. Bu esa mavzuni ilmiy o'rganish ob'ekti sifatida tanlab olinishiga sabab bo'ldi.

Bitiruv malaka ishining maqsadi. O'zbekistonni jahon sivilizasiyasiga qo'shilib borishi (integrasiyalashuvi) va uning inson omiliga ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun:

– "integrasiya", "mafkuraviy jarayon" va "sivilizasiya" tushunchalari o'rtasidagi farqli va umumiy jihatlarni aniqlash orqali, ularning mazmunini ochib berish va ta'riflariga oydinlik kiritish;

– O'zbekistonning siyosiy-mafkuraviy munosabatlar tizimini ochib berish;

⁶ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.-T.: O'zbekiston, 1996;

– hozirgi davr halqaro munosabatlarning inson manfaatlariga ta'sirini yoritish;

– global va mintaqaviy mafkuraviy g'oyalarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

– milliy g'oyaning jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimida namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash va nazariy asoslash;

– globallashuv sharoitida O'zbekistonda inson va uning qadri eng oliy qadriyatga aylanayotganligini tahlil etish;

– O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqishdek vazifalarni hal etish nazarda tutiladi.

Bitiruv malaka ishining ilmiy yangiligi:

– “integrasiya”, “mafkuraviy jarayon” va “sivilizasiya” tushunchalari o'rtasidagi farqli va umumiy jihatlarini aniqlanib, ularning mazmuni ochib berildi va ta'riflariga oydinlik kiritildi;

– O'zbekistonning siyosiy-mafkuraviy munosabatlar tizimi ochib berildi;

– hozirgi davr halqaro munosabatlarning inson manfaatlariga ta'siri yoritildi;

– global va mintaqaviy mafkuraviy g'oyalarning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi;

– milliy g'oyaning jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimida namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlandi va nazariy asoslandi;

– globallashuv sharoitida O'zbekistonda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning usullari va vositalari aniqlandi;

– O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlaridagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malaka ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishning nazariy ahamiyati unda o'z aksini topgan xulosalarning O'zbekistonni jahon sivilizasiyasiga qo'shilib borishi (integrasiyalashuvi) va uning inson omiliga

ta'sirini chuqurroq anglab etishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Ularni tadqiq etish jahon sivilizasiyaviy-mafkuraviy davrida sodir bo'layotgan jarayonlarning mazmunini to'g'ri anglashga yordam beradi. Bu o'z navbatida, O'zbekistonni jahon sivilizasiyasida istiqbolini oldindan ko'ra bilish uchun sharoit yaratadi. Ayni paytda, dissertasiyada bayon etilgan xulosalar ushbu yo'nalishdagi keyingi ish va tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ishning amaliy ahamiyati unda o'z aksini topgan nazariy xulosalar va umumlashmalar, konkret amaliy taklif-tavsiyalardan O'zbekistonni jahon sivilizasiyasida tutgan o'rniga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, mustaqillik sharoitida milliy mafkuraviy tizimda sodir bo'layotgan keng qamrovli ijobiy o'zgarishlarni ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan uyushmalar, jamg'armalarning faoliyati orqali keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib va tashviq qilish jarayonida, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida tegishli o'quv kurslarini o'qitishda ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malaka ishining tuzilishi: Ish hajmi 64 bet bo'lib, "Kirish", uchta bob, oltita paragraf, "Xulosa" hamda "Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati"dan iborat.

I-BOB. O'ZBEKISTONNING JAHON SIVILIZASIYASIGA QO'SHILIB BORISH (INTEGRASIYA) JARAYONINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Integrasiya jarayoni tushunchasi: mohiyati va mazmuni.

Integrasiya – juda keng ma'nodagi tushuncha. Bugungi kunga kelib kishilar integrasiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, zarur. Integrasiya nima? – «Integrasiya» – lotincha «integration» so'zidan olingan bo'lib, «integr» to'liq yaxlit, bir butun degan ma'nolar anglatadi; Integrasiya-o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integrasiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir.

Integrasiya jarayonlari tashkillashtirilgan sistemalarda bo'lishi mumkin – bu holda ular sistema butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko'taradi. Integrasiya jarayonlari oldin bog'lanmagan elementlarni biriktirish asosini hamda shakllangan sistemalarda ham yuz berib, natijada sistemani bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o'rtasida aloqadorlikka murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo'ladi. Gerbert Spenser (1820–1903) falsafasida sochilgan, sezilmaydigan holatning ichki jarayonlarini sekinlashuvi natijasida zichlashishi va seziladigan darajaga o'tishi tushunilsa, dezintegrasiya – buning aksi, ya'ni zich joylashgan narsaning harakat tezlashishi natijasida sochilgan holatga o'tishidir. Spenser "integrasiya» so'zini, ko'pincha, agregasiya tushunchasi bilan teng ma'noda qo'llaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, Quyosh sistemasi, sayyoralar, organizm, millat rivoji integrasiya va dezintegrasiyaning birin–ketin o'rin almashinuvlari natijasidir. Yensh (1883–1940) psixologiyasida integrasiya deganda, ruhiy hayotning ayrim xususiyatlarini butun ma'naviy hayot majmuiga ta'sir qilishi tushuniladi. Smendning davlat to'g'risidagi ta'limotida integrasiya deganda davlatning, uning faoliyati shakllarining o'zaro ta'siri natijasida doimiy yangilanib turishi anglanadi. Ijtimiy integrasiya individlar, guruhlar, tashkilotlar va davlatlar o'rtasidagi tartibli munosabatni mavjudligini anglatadi. Integrasiya

jarayonini tahlil qilishda u bilan bog'liq sistema yoki sohaning murakkabligi e'tiborga olinadi. Misol sifatida jamiyatda integrasiyalashuv, sivilizasion integrasiyalashuv, fanda integrasiyalashuv va h.k.

Jamiyat yoki ayrim davlatlarning integrasiyasi majburiy o'zaro manfaat yoki maqsad, intilish, qadriyat kabilar asosida joriy etiladi. Hozirgi davrda davlatlararo integrasiyalashuvlar jarayonlari rivojlanmoqda. Integrasiya – ob'ektiv hayotiy jarayon. Globallashayotgan hozirgi hayotning integrasiyalashuv jarayonida mustaqillikni saqlab qolish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa xalqaro hamkorlikda quyidagi prinsiplarga qat'iy amal qilishni taqazo etmoqda:

1.Integrasiyalashgan birlashmalarga faqat tomonlarning tengligi asosida qo'shilish lozim (hatto siyosiy-iqtisodiy potensial turli-tuman bo'lgan taqdirda ham);

2. Milliy manfaatlar deklarasiyasiga asoslanish, ularning mintaqaviy va boshqa manfaatlar oldida ustuvorligi;

3. Ishtirok etishning ixtiyoriyligi va u yoki bu ittifoqni tanqid qilish imkoniyati mavjudligi.

Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri – kishilarning ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayganligidir. Qonli urushlar, harbiy yurishlar, iqtisodiy iskanjaga olish o'rniga endi tobora ko'proq ma'naviy - mafkuraviy vosita, qurol va maxsus texnologiyalar kullanmoqda. Odamlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinishlar ko'proq ma'naviyat maydonida amalga oshirilmoqda. Boshqa hudud va xalqlarni o'ziga qaram qilish uchun endi ochiqdan-ochiq ko'rish va sezish qiyin bo'lgan vositalar, xususan, mafkuraviy buzg'unchilik usullari qo'llanilmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotga xavf soluvchi bunday xatarlarga qarshi sog'lom mafkurani shakllantirish davr talabidir. Bunday mafkuraviy potensial halqimizning boy tarixiy tajribasidan shakllanib kelgan. Shuning uchun ham Birinchi Prezident Islom Karimov o'z ma'ruzasida "Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom sog'lom maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaosiga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan

poydevor bo'lib kelgan"⁷ degan edi. Zamonaviy rivojlanishning muhim xususiyatlaridan biri bu - turli mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi, iqtisodiy o'sish hamda integrasion jarayonlarning makro va mikro-darajalarda rivojlanishi, zamonaviy mamlakatlarning yopiq milliy xo'jalikdan tashqi dunyoga yo'naltirilgan ochiq turdagi iqtisodiyotga tezkorlik bilan o'tishi bilan belgilanadi. Bularning barchasi hozirgi bosqichda jahon xo'jaligi iqtisodiy rivojlanishining qonuniyatlari bilan izohlanadi. Iqtisodiy integrasiyani shunchaki bir tabiiy bozor jarayoni yoxud faqat ongli ravishda tartibga solib turiluvchi jarayon sifatida tushunmaslik kerak. U dialektik hodisa bo'lib, aynan bir hodisaning ham ob'ektiv, ham sub'ektiv tomonlarini o'zida ochib beradi. Integrasiyaga o'z o'rnida dastavval mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy va xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish va imkon qadar ikki va undan ortiq davlatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish natijasida erishiladi. Integrasiyaning boshlang'ich nuqtasi bo'lib iqtisodiy hayotning birlamchi sub'ektlari doirasidagi to'g'ridan-to'g'ri xalqaro iqtisodiy munosabatlar hisoblanib, ularning rivojlanishi chuqurlashgani hamda kengaygani sari milliy xo'jaliklarning o'z negizlari darajasida asta-sekinlik bilan bir-birlariga birlashib ketishlarini ta'minlaydi. Mazkur jarayon esa davlatlarning iqtisodiy, huquqiy, soliq, ijtimoiy va boshqa tizimlarining o'zaro bir-biriga kirishib ketishi xatto boshqaruv tuzilmalarining ma'lum darajada bir-biriga birlashishigacha davom etishi shubhasizdir. Integrasiyaning asosiy maqsadi – bu xalqaro masshtablarda xo'jalik faoliyati samaradorligini ta'minlash asosida va natijada taklif etilayotgan tovar va xizmatlarning hajmlarini oshirish va ularni tanlab olishni kengaytirish demakdir. Zamonaviy sharoitlarda bozor iqtisodiyoti mavjud bo'lgan mamlakatlarning integrasion rivojlanishi amalda zarurligini nazariy jihatdan asoslash uchun harakatlar XX-asrning 50-60 yillardayoq bir qator xorijiy olimlar J. Rueff, R. Shuman, V. Xal'shteyn, M. Panich, E. Benua, J. Monne, P. Robson va boshqalar⁸ tomonidan amalga oshirilgan. "An'anaviy

⁷ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, - T.: O'zbekiston, 2000, -B.490.

⁸ Ekonomicheskaya teoriya nacional'noy ekonomiki i mirovogo xozyaystva. – M., Fin. Akad. Pri Pravitel'stve R.F, 1997. 13

nazariya”ga ko’ra, ayrim tadqiqotchilar asosiy tahlil qilish ob’ekti sifatida faqat bojxona ittifoqi (savdo-tijorat to’siqlariga barham berish, muayyan muvofiqlashtiruvchi tartibni joriy etish va hokazolarni nazarda tutuvchi) doirasidagi iqtisodiy asoslarni belgilaganlar. Integrasiyaning shunday atalmish statik (harakatsiz) effektlari bojxona ittifoqiga kiruvchi hamda boshqa mamlakatlar hududida bozorlarning kengayishi munosabati bilan tovarlar oqimini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur nazariya asosida «trade creation» va «trade diversion» tushunchalari amalga kiritilgan. O’z o’rnida bu tushunchalar tegishlicha «savdo tamoyillarini ishlab chiqish, yangi tovarlar oqimini yaratish» va «savdoni diversifikasiyalash (kengaytirish, yoyish), «tovar oqimlarini diversifikasiya qilish» ma’nolarini anglatadi. Mazkur nazariyaga muvofiq integrasiya jarayonida integrasion guruh a’zo mamlakatlari o’rtasida o’sha mamlakatlarda bir xil turdagi o’xshash tovarlarni ancha qimmat narxlarda ishlab chiqarishni bartaraf etish maqsadida tovarlar oqimlari yaratiladi. Asta-sekinlik bilan guruh ichida ishlab chiqarilayotgan tovarlar uchinchi mamlakatlardan import qilinayotgan tovarlar o’rnini egallaydi.

Jahon tajribasi ko’rsatadiki, integrasion jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa, mantiqiy ketma-ketlikda bosqichma-bochqich shakllanadi.

Integrasion munosabatlarning amal qilishi asosan quyidagi shakllarda namoyon bo’ladi:

Tovar va xizmatlar xalqaro savdosi;

Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik;

Xalqaro ilmiy-texnika hamkorligi;

Mintaqaviy integrasion birlashmalarning shakllanishi va rivojlanishi.

Xalqaro savdo dunyodagi barcha mamlakatlarning tashqi savdosini qamrab oluvchi jamlama tushuncha bo’lib, xalqaro tovar-pul munosabatlari sohasi hisoblanadi. Bu bozorda xaridor va sotuvchilar sifatida davlat, davlat korxonalari, transmilliy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar, turli firmalar, alohida jismoniy shaxslar faoliyatda bo’lishi mumkin. Mamlakatlar o’zaro integrasion aloqalarining

asosini tovar va xizmatlar savdosi tashkil etadi. Shu sababli ular mazkur savdo aloqalarini erkinlashtirish, o'zaro qulay savdo shart-sharoitlarini yaratish, proteksionistik vositalarga barham berish, tarifli savdo tartibini takomillashtirib borish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish kabilar orqali integrasion munosabatlarini tartibga solish va rag'batlantirishga harakat qiladilar.

Integrasiyaning muhim mexanizmlaridan yana biri ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishdagi halqaro hamkorlik hisoblanadi. Buning asosida alohida tovarlar guruhi, tovar yoki tovarning ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishda tarmoq va tarmoq ichi ixtisoslashuvi yotadi. Boshqacha aytganda u yoki bu mamlakat yuqori mehnat unumdorligiga erishish, iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va xarajatlarini imkon qadar kamaytirish uchun muayyan ishlab chiqarish yo'nalishiga ixtisoslashadi. Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlikning asosiy shakllari tovar ishlab chiqarish va sotishdagi kooperasiya, korxonalariga birgalikda egalik qilish (qo'shma korxonalar), qurilish sohasidagi konsorsiumlar tashkil etish kabilar hisoblanadi. Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik integrasion aloqalarda o'zining barqarorligi va doimiyligi bilan, loyihalarni keng qamrab olishi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli shartnomalar asosida bunday hamkorlikni nafaqat rivojlangan davlatlar o'rtasida, balki taraqqiyot darajasida tafovut katta bo'lgan sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ham rivojlantirib borish imkoniyati keng hisoblanadi. Xalqaro integrasiyada ilmiy-texnika hamkorligining ahamiyati so'nggi o'n yillikda ortib bormoqda. Chunki, ilmiy-texnika taraqqiyoti milliy xo'jaliklarning jadal rivojlanishiga, ijtimoiy-maishiy muammolarni nisbatan tez hal qilishga imkoniyat yaratmoqda. Ilmiy-texnika hamkorligi ilmiy tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, texnik va muxandis xodimlar guruhini shakllantirish va qo'shma loyihalarda qatnashish, ilmiy-tadqiqot markazlari, laboratoriyalari, byurolari tashkil etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabilarda namoyon bo'lmoqda. Ayni vaqtda, dunyo mamlakatlarining ilmiy, ilmiy-texnik va innovasion salohiyati jahonning muayyan markazlarida to'planib qolishi tendensiyasi kuchaymoqda. Bu markazlar asosan, AQSh, Evropa va

JanubiySharqiy Osiyo (Yaponiya, Janubiy Koreya kabilar) hisoblanadi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish yuqori innovasion salohiyatni, yuqori ilmiy malakali xodimlarni, chuqur fundamental va amaliy tadqiqotlar majmuasini shakllantirish talabini qo'ymoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatlar axborot ta'minoti va almashinuvida, ilmiy-innovasion infratuzilmani rivojlantirishda hamkorlikda ishlashlarini taqozo etayapti. Mamlakatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar savdosini kengaytirish, ishlab chiqarish kooperasiyasini ta'minlash, ilmiy-texnika hamkorligini chuqurlashtirish ularning hududiy jihatdan yaqin bo'lishini ob'ektiv zaruratga aylantirgan. Shu sababli, rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, ba'zi mamlakatlar hududiy integrasion aloqalarni shakllantirgan. Integrasiya yo'nalishiga ko'ra ikkiga bo'linadi. Ulardan birinchisi, mintaqaviy, ikkinchisi, xalqaro miqyosdagi integrasiyadir. Integrasiyaning ana shu ko'rinishlari o'zaro to'ldiruvchanlik xususiyatiga ega.

Mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi integrasiyadan maqsad iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mamlakatlar manfaatlarini yanada kengroq ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Mamlakatlarning geografik joylashgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va shu kabi boshqa omillar integrasiyaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan integrasiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, mintaqaviy integrasiyani ustun takomillashtirib boradilar. Bunga Evropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA), Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Mamlakatlarning mintaqa miqyosida integrasiyalashuvi orqali xalqaro integrasiya rivojlanib borishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib boriladi. Chunki, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo mintaqaviy integrasiyaning rivoji uchun asos bo'lgani singari, mintaqaviy integrasiya ham xalqaro integrasiya rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Mintaqaviy doirada integrasiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, o'zaro tashqi savdoni cheklashga qaratilgan kvota kabi to'siqlarni bartaraf qiladilar. Shundan so'ng, yagona bojxona tizimi shakllanadi, mintaqaviy integrasiyaga a'zo mamlakatlar uchun bir xil boj stavkalari joriy etilib,

uning to'la amal qilinishiga erishiladi. Bu jarayon mamlakatlardagi ishlab chiqarishning rivojlanishini yanada rag'batlantirish uchun, soliq tizimidagi imtiyoz va turli cheklovlarni bekor qilish maqsadida, integrasion hududga kiruvchi davlatlarda soliq stavkalarining yaqinlashtirilishini ham taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra dunyo mamlakatlarida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni bosqichma-bosqich erkinlashtirish bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirishda barcha zaruriy qulayliklarga ega bo'lgan samarali iqtisodiy model sifatida tarkib topdi va doimiy ravishda takomillashib bordi. Biroq bu jarayon uzoq davom etgan bo'lib, er yuzida tabiiy resurslarning notekis taqsimlanganligi tufayli jahon xo'jaligi tizimida halqaro mehnat taqsimotini vujudga keltirdi va uni ob'ektiv zaruratga aylantirdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jahon xo'jaligi tizimida halqaro mehnat taqsimoti jarayonining keng miqyosda tarqalib borishi, turli mamlakatlar va qit'alar o'rtasida muntazam iqtisodiy aloqalarni o'rnatish zarur ekanligini taqozo etdi va iqtisodiyotning milliy alohidalashuvini keskin chekladi. XX asrning ikkinchi yarmida xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi hozirgi zamon dunyo xo'jaligining rivojlanishida etakchi yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi. Dunyo xo'jaligining katta miqyosda baynalminallashuvi asosiy yo'nalishlaridan biri u yoki bu mamlakatning, yoki kuchli rivojlangan davlatlar guruhining ta'sir zonalari paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Bu mamlakatlar yoki davlatlar guruhi o'ziga xos integrasiya markazlariga aylanib ular atrofida boshqa mamlakatlar birlashadilar. Jahon xo'jaligi iqtisodiy integrasiyasi – bu milliy bozorlar va mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasidagi bog'liqlikni anglatib, turli mamlakatlar doirasida resurslarning erkin harakatlanishi orqali yagona umumiy bozorlarning vujudga kelish jarayoni demakdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunga qadar jahon xo'jaligi amaliyotida tarkib topgan iqtisodiy aloqalar tizimi har doim ham iqtisodiy integrasiyani anglatavermaydi.

1.2. O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga integrasiyalashuvi

XXI asrning dastlabki 10 yilligi jahon tarixiga ijtimoiy dunyoqarashda, jahon hamjamiyatining jug'rofiy-siyosiy tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib kiradi. Jahon yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrning o'ziga xos belgilari, bir tomondan, davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorliklarning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro me'yorlar, qoidalar va andozalarga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomondan, socialistik lagerning emirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, bu tuzumlar o'rnida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi uning ko'p asrlik qaramlik va mutelik iskanjasida yashagan xalqi xayotida tarixiy voqea bo'ldi. Shu bilan birga uning davlat siyosatida, xalqaro maydondagi munosabatlarida ham o'ziga xos muxim bosqich bo'ldi. Avvalo, yosh, mustaqil, suveren davlatning jahonga yuz tutishi, uni ko'plab davlatlar, mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishi, diplomatik, savdo-sotiq va boshqa aloqalarni o'rnata borishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonga chiqishiga yo'l ochib berdi.

O'zbekiston qulay geostrategik mavqega ega. Hozirgi O'zbekistonning xududi tarixan shunday joy bo'lganki, bu erda juda ko'p savdo yo'llari tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni kechgan. Xozirgi kunda O'zbekiston o'zining mustaqil energetika va suv tizimlariga ega bo'lgan sobiq Sovet O'rta Osiyosining markazida turibdi, ko'pgina masalalarda respublikalar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilmoqda va xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda tobora faol rol o'ynamoqda.

O'zbekiston mustaqil Markaziy Osiyo Respublikalari orasida g'oyat kata eksport imkoniyatiga ega bo'lgan juda muxim xomashyo-paxta va undan tayyorlangan maxsulotlarni etishtiruvchi hamda etkazib beruvchi asosiy respublikadir. O'zbekiston Respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ximoya qilish imkonini beradigan etarli potensialga ega. Er bag'rining g'oyat

qimmatli xomashyolarga boyligi chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga javob beradigan, mamlakatning jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan, milliy, mintaqaviy va jahon xavfsizligiga ko'maklashadigan tashqi siyosat yurgizmoqda. Uning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida qonunlashtirilgan. "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish va ulardan ajralib chiqishi mumkin" deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatiga quyidagi qoidalar asos qilib olingan:

- davlatning suveren tengligi va chegaralarning daxlsizligini xurmat qilish;
- boshqa davlatning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan xal qilish; - kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid qilmaslik;
- inson xuquqlarini va erkinliklarini xurmatlash;
- ichki milliy qonunlardan xalqaro xuquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustivorligini tan olish;
- tajovuzkor xarbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo teng xuquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida tinchlik, barqarorlik, hamkorlik tamoyillari ustunlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi marta 1992 yil 2-martda jahon hamjamiyatining to'la, teng xuquqli sub'ekti sifatida BMTga qabul qilindi. O'zbekiston BMT Nizomi, xalqaro xuquqiy me'yorlar, davlatlararo muomala qoidalari, shuningdek, BMT tarkibiga kiruvchi xalqaro tashkilotlarning talablariga rioya qilishini bildirdi. O'zbekiston amalda deyarli barcha xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy tashkilotlarning a'zosi. "Evropada hamkorlik va xavfsizlik

tashkiloti”, “Parlamentlararo Ittifoq”, “Xalqaro valyuta fondi”, “Rekonstruksiya va rivojlanish Evropa banki”, “Jahon banki”, “Xalqaro mexnat tashkiloti” va boshqalar bunga misoldir. Toshkentda 50 dan ortiq xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini ochilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Asambleyasining 1993 yilda boʻlgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda qilgan maʼruzalari Oʻzbekistonni jahonga koʻxna va navqiron yosh davlat sifatida namoyon etdi. 1993 yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi taʼsis etildi va ish boshladi. Oʻzbekiston Respublikasi va BMT raxbarlarining saʼy-xarakatlari natijasida bugungi kunda respublikamizda BMT vakolatxonasi, mamlakatimizda BMTning taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi boʻyicha oliy qoʻmita komissari, jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti, axoli joylashish jamgʻarmasi, narkotiklarni nazorat qilish dasturi, bolalar jamgʻarmasi singari iqtisodlashgan muassasalarni oʻz tarkibiga birlashtirishga muvaffaq boʻldi.

Oʻzbekiston 1992 yil fevral oyida doʻnyoda tinchlikni mustaxkamlash, inson xuquqlarini ximoya qilish boʻyicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot - Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga aʼzo boʻlib kirdi. I.A.Karimovning 1992 yil 9-10 iyulda boʻlib oʻtgan EXXT majlisida ishtirok etishi, unda nutq soʻzlashi va Kengashning 10 iyulda boʻlgan majlisiga raislik qilishi Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatida munosib oʻrin egallayotganligining dalilidir. EXXT Toshkentda va Urganchda atrof-muxitni qayta tiklash boʻyicha seminar tashkil qilib, Orol muammosini xal qilishga koʻmaklashmoqda. EXXTning Toshkentda aloqalar boʻyicha mintaqaviy byurosi ochilgani ham ijobiy ahamiyatga ega boʻldi.

Oʻzbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qoʻshilmaslik xarakteriga qabul qilindi, boʻlgʻusi jahon parlamentining timsoli boʻlmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirdi. Islom konferensiyasi Oʻzbekistonni kuzatuvchi sifatida qabul qildi va mamlakatimizga ishonchli va masʼuliyatli sherik deb qarashmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro tashkilotlar - “Xalqaro mexnat tashkiloti”, “Jahon Pochta ittifoqi”, “Elektr aloqasi

bo'yicha xalqaro ittifoq", "Jahon meteralogiya tashkiloti", "Xalqaro Olimpiada qo'mitasi", Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikning a'zosi bo'ldi. Bularning hammasi O'zbekiston Respublikasining tarixan qisqa vaqtda xalqaro hamjamiyatga qo'shilganining, xalqaro hamjamiyatning teng xuquqli a'zosi sifatida dunyo siyosatida faol qatnashayotganining yaqqol ifodasidir.

Bugungi kunda ham dunyo keskin ziddiyatlarga tulib-toshib turibdi. "Sovuq urush" siyosati barham topgan bo'lsada, milliy va diniy nizolar jahon tinchligiga xavf solib turibdi. Butun insoniyatni ekologik tanglik, biogenetik buzilishlar, uyushgan jinoyatchilik, ekstremizm, terrorchilik tashvishlantirmoqda. Jahon xavfsizligini ta'minlash davrimizning eng dolzarb masalasiga aylangan. Jahon tinchligi mintaqalardagi tinchlikka, shuningdek, ayrim olingan xar bir mamlakatdagi tinchlikka bog'liq bo'lib qoldi. Xar bir mamlakatda milliy xavfsizlik ta'min etilgan bo'lsa, o'sha mamlakat joylashgan mintaqada xavfsizlik bo'ladi, mintaqalarda xavfsizlik ta'minlansa, jahon xavfsiz bo'ladi. Shuning uchun ham jahon siyosatida milliy, mintaqaviy va jahon xavfsizligini ta'minlash masalalariga aloxida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham o'zining tashqi siyosatida milliy, mintaqaviy xavfsizlik masalalariga jahon xavfsizligining tarkibi qismi sifatida aloxida e'tiborini qaratib kelmoqda. Prezidentimiz o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ta'kidlaganiday, "Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda".⁹ Ma'lumki, 1991 yil 7 dekabrda Belovej o'rmonida bo'lib o'tgan uchrashuvda SSSR o'rniga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tuzilgan edi. Boshqa mustaqil respublikalar boshliqlari singari, O'zbekiston raxbariyati ham ish bitib bo'lganidan keyin undan xabardor qilindi. Shunday bo'lsada, O'zbekiston raxbariyati MDXga kirishga qaror qildi. O'zbekiston xukumati hamdo'stlik

⁹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 158 b.

davlatlari bilan ikki tomonlama va ko'ptomonlama asosda iqtisodiy, savdo va madaniy hamkorlik o'rnatishga xarakat qildi. 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Rossiya federasiyasi, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqalar bilan shartnomalar tuzdi. MDX davlatlari boshliqlarining 1992 yil may oyida Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvida O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan kollektiv xavfsizligi to'g'risida shartnoma tuzildi. Bu shartnomani olti mamlakat rahbarlari imzoladilar. MDX davlatlari o'rtasida davlatlararo iqtisodiy qo'mitaning tuzilishi bu mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muxim bosqich bo'ldi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashganligidan, uning tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi muayyan ma'noda shu mintaqada vaziyat muvozanatiga ham bog'liqdir. Chunki Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, xarbiy, transport va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan. Shuni nazarda tutadigan bo'lsak, butun mintaqaning sobitqadam va barqaror rivojlanishini ta'minlash va mojaroli vaziyatlarning oldini olish uchun hozirgi kunda ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo'llab-quvvatlashgina birdan-bir maqbul tamoyildir. Mintaqada jug'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdlagina mazkur muammolarni xal etish imkoni tug'iladi. Bu esa o'z navbatida yalpi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini xal qilishga qo'shilgan salmoqli hissa bo'ladi"¹⁰. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining I.A.Karimov tashabbusi bilan 1993 yil 4 yanvarda Toshkenda chaqirilgan uchrashuvi shu davlatlar xayotida jiddiy voqea bo'ldi. Bu uchrashuvda umuman butun mintaqa taqdiriga taalluqli muammolar birinchi marta muxokamaga qo'yildi. Markaziy Osiyo davlatlaridan birining poytaxtida muntazam chaqirilib turiladigan ana shunday uchrashuvlar mintaqa kuchlarini jipslashtiruvchi muxim dastakka aylandi. Bu davlatlar tarixiy taqdirlari va geosiyosiy xolatining mushtarakligi ularning o'zaro iqtisodiy, savdo-sotiq, siyosiy va ma'naviy hamkorlikni kengaytirish, inqirozli xolatdan chiqib olishni

¹⁰ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 159 b

taqozo qildi. Shu sababdan qo'shni Afg'onistonda ko'p yillardan buyon davom etib kelayotgan fuqarolar urushi yoxud yon qushnimiz Tojikiston zaminida yuz berayotgan birodarqushlik urushlari shu mintaqadagi umumiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, bundan O'zbekiston ning ham tashvish chekayotganligi, shuni xisobga olib respublikamiz raxbariyati mintaqadagi siyosiy iqlimni sog'lomlashtirishga astoydil xarakat qilayotganligi hammaga ma'lum. Bu borada respublikamiz Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Assambleyalari sessiyasida so'zlagan nutqlarida, shuningdek BMT bosh Kotibi nomiga yo'llagan maktublarida va boshqa uchrashuvlar va anjumanlarda qayta-qayta o'qtirib o'tganligi bejiz emas.

Markaziy Osiyodagi qardosh Respublikalar o'rtasida o'zaro hamkorlik, integrasiya jarayonlari mintaq xalqlari uchun, ularning yorqin kelajagi uchun milliy istiqlol butunlay yangi saxifa ochdi. O'z milliy boyliklari, resurslarini tasarrufiga kiritgan Markaziy Osiyo xalqlari istiqlol yo'lidan izchil bormoqdalar.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - "xalqlarimiz tarixi, madaniyati, an'analari, diniy e'tiqodlarining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjixatlikning muxim poydevori xisoblanadi... bizning maqsadlarimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, xal qilib bo'lmaydigan vaziyatlar ham yo'q. Integrasiya yo'lidan xarakat qilayotganimiz ham buni tasdiqlab turibdi"¹¹. 1994 yil yanvarda Toshkentda O'zbekiston va Qozog'iston respublikalari prezidentlari uchrashuvi paytida ikkala davlat o'rtasida yagona iqdisodiy makonni yaratish to'g'risida shartnoma imzolanishi, ko'p o'tmay unga qardosh Qirg'iziston davlatining qo'shilishi shubxasiz, mintaq xalqlari xayotida muxim voqea bo'ldi. Uchchala davlat o'rtasidagi shartnoma o'z samarasini bermoqda. Almata shaxrida bitimda qatnashuvchi mamlakatlar vakillaridan iborat Davlatlararo ijroiya qo'mita tuzildi. Toshkentda mintaq bank markazi ish boshladi. Sanoatni integrasiyalashtiradigan dastur ishlab chiqildi. Hozirda bu dastur asosida butun Markaziy Osiyo mintaqasi muxtoj bo'lgan

¹¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 159 b

mahsulotni ishlab chiqaradigan birgalikda sarmoya sarflanadigan ob'ektlar aniqlab olindi hamda ularni amalga oshirish borasida tegishli tadbirlar xayotga tadbiiq etilmoqda. Mintaqada bunyod etilayotgan yagona iqtisodiy makon faoliyatida boshqa qo'shni davlatlar ham bemalol qatnashishlari mumkin. Shunga ko'ra Tojikiston ham bu shartnomaga qo'shildi.

Xalqaro miqyosda obro'-e'tibor, mamlakatlar va xalqaro xurmat-e'tibor katta siyosiy, ma'naviy hamda axloqiy kapital xisoblanadi, uni xech qanday pulga sotib olib bo'lmaydi. Bu mustaqil O'zbekistonning asosiy qadriyatidir. Shu bilan bir vaqtda, xalqaro aloqalar, o'zaro foydali hamkorlik mavjud muammolarni xal etishga, istalغان mamlakatni taraqqiy ettirishga ulkan xissa qo'shadi. Shu ma'noda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi o'zining yuksak samarasini bermoqda. Bugungi kunda O'zbekiston eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ..." kitobida ta'kidlaganiday, "O'zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz ham dunyoning O'zbekistonga katta qiziqish bilan qarayotganligini xis etmoqdamiz. Bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. Biz buni O'zbekiston kapital sarflash nuqtai nazaridan ham, dunyo miqyosidagi keng qamrovli xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e'tibor qozanayotganligining dalili deb bilamiz".

O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli sub'ektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar muammolar shunchalik kam bo'ladi. Shu ma'noda mamlakatimiz jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuv jarayonida aktiv ishtirok etmoqda. Bunda BMTning integrasiya soxasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligini xisobga olmoqda. O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etmoqda. O'zbekiston ning AQSh bilan ikki tomonlama munosabatlari izchil va sobitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning etakchi davlati bo'lgan, juda katta siyosiy, iqtisodiy, xarbiy-texnikaviy, intellektual

salohiyatga ega bo'lgan AQSh bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish biz uchun ustivor ahamiyat kasb etmoqda. AQSh bilan aloqalar Respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustaxkamlash jarayoniga salmoqli xissa qo'shmoqda. So'nggi yillarda Evropadagi ko'pgina mamlakatlar - Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Gresiya, Chexiya, Slovakiya va boshqa mamlakatlar bilan bevosita ikki tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustaxkamlandi. Osiyo mamlakatlari - Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vyetnam, Malayziya, Xindiston, Indoneziya, va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustaxkamlanib borayotganligi muxim ahamiyat kasb etadi. Keyingi vaqtlarda Yaponiya mintaqamizning murakkab muammolarini - xavfsiz va barqaror tinchlikka erishish, atrof-muxit muxofazasi masalalarini xalq etishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

EvrAzES – Evropa – Osiyo iqtisodiy hamjamiyati 2000 yil oktyabr oyida Belorusiya, Qozog'iston, Rossiya va Tojikiston mustaqil davlatlari raxbarlari imzo chekkan Shartnoma asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. 2005 yil oktyabr oyida Respublikamiz Prezidenti Sankt – Peterburg shaxrida O'zbekistonning EvrAzES tashkilotiga kirishi haqida kelishdi. EvrAzES davlatlari raxbarlarining 2006 yil yanvarda navbatdagi sammitida O'zbekiston Respublikasi EvrAzES a'zoligiga rasmiy ravishda qabul qilindi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyati 1996 yilda Rossiya va Xitoy davlatlari o'rtasida boshlangan. Shu yili Tojikiston, Qirg'iston, Qozog'iston a'zo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi 2001 yili rasman qo'shildi. Shanxay hamkorlik tashkilotining kuzatuvchi davlatlari safiga: Xindiston, Eron, Mug'uliston va Pokiston davlatlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati xalq manfaatlarini yo'lida xizmat qilishga, xalq turmushi, farovonligini yaxshilashga yo'naltirilgan. Shuning uchun xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarda iqtisodiy omillar xalq qiluvchi rol o'ynaydi. Xorijiy mamlakatlardan respublikamizga ilg'or texnologiyalar, sarmoyalar kirib kelishi, qo'shma korxonalar qurilishi oqilona tashqi siyosatning natijasidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahondagi 80 ga yaqin mamlakatlarning sarmoyalari ishtirokida tashkil etilgan 3530 dan ortiq qo'shma korxonalar ishlab turibdi. Ular iste'mol mollari, eksport uchun sifatli tovarlar ishlab chiqarmoqda, axoliga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz xar yili Davos shaxrida o'tadigan jahon iqtisodiy anjumanida ishtirok etmoqda. Anjumanda qatnashish O'zbekistonni va uning imkoniyatlarini tanishtirish, chet el investisiyalarini jalb etish uchun muxim ahamiyatga egadir. Chunki chet el investisiyalari xalq xo'jaligining tarkibini qayta qurishga, takomillashtirishga va ishlab-chiqarishni jixozlashga, sermexnat va ko'p ilm talab qiluvchi ishlab chiqarishni barpo etishga yo'naltiriladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 5 milliarddan ortiq AQSh dollari miqdoridagi horijiy investisiyalar ishtirokida loyixalar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyot va moliya bo'yicha nufuzli "El Mundo Financiero.com" (Ispaniya) xalqaro jurnalida shunday sarlavhali maqola e'lon qilindi. Uning muallifi qirol Xuan Karlos nomidagi universitet professori Karlos Uriartedir. Olimning qayd etishicha, Shavkat Mirziyoev Prezidentlik lavozimiga kirishganidan so'ng O'zbekistonda mamlakatni faol rivojlantirish va modernizasiya qilishga qaratilgan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, tashqi siyosatda ham tub ijobiy o'zgarishlar kuzatilyapti. K. Uriartening aytishicha, O'zbekiston qo'shnilar bilan munosabatlarda yangi yo'nalish tashabbusi bilan chiqdi. Tinchlik, yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash uning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston etakchisining 2018 yilda AQSh va Fransiya hamda boshqa davlatlarga amalga oshirgan tashriflari uning nafaqat yaqin xoriydagi, balki g'arbdagi yirik iqtisodiy ilg'or mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama sheriklikni - kengaytirish istagi borligidan dalolat beradi.

O'tgan yil iyunь oyida Shavkat Mirziyoev ShHT sammiti doirasida XXR Raisi Si Szinьpin bilan uchrashdi. 2018 yilning 30 sentyabrь — 1 oktyabrь kunlari O'zbekiston Prezidenti Hindistonga davlat tashrifi bilan bordi. Oktyabrь oyida Rossiya Prezidenti Vladimir Putin O'zbekistonga keldi. Binobarin, muallif o'tgan yillardagi muhim voqealarni sanab o'tadi.

Ekspertning fikricha, Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 9 iyun kuni - Ostonada bo'lib o'tgan ShHT sammitidagi ishtiroki doirasida Ispaniya Qirolli Filipp VI bilan uchrashuvi ikki tomonlama aloqalar ravnaqiga xizmat qildi.

Oxirgi uch yilda O'zbekiston xalqaro maydonda alohida e'tirofga sazovor bo'ldi. Karlos Uriarte AQShning O'zbekistonni "alohida xavotir uyg'otadigan davlatlar ro'yxati"dan chiqarish to'g'risidagi qarorini muhim muvaffaqiyatlardan biri sifatida e'tirof etgan. O'z navbatida, diniy erkinlik sohasida erishilgan yutuqlar ham ta'kidlab o'tilgan. "O'zbekiston faoliyat ko'rsatish, integrasiya qilish va hamjihatlik borasida namuna bo'ladigan ko'p millatli va ko'p konfessiyali respublikadir"¹², deya urg'u beradi muallif.

Shavkat Mirziyoevning yangi siyosati dunyo kun tartibiga ijobiy g'oyalar olib kirganini ta'kidlaydi muallif. Ular muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2018 yil 27 noyabr kuni BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik trust fondi taqdimoti bo'lib o'tdi. U Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan yaratildi.

Orol dengizi dunyoda kattaligi bo'yicha qachonlardir to'rtinchi o'rinda turardi. Biroq sobiq ittifoq davrida suv resurslaridan nooqilona foydalanish oqibatida suv hajmi 80 foizdan ziyodga kamayib ketdi. Natijada bu mintaqada ekologik halokat va ijtimoiy muammolarga olib keldi.

O'zbekiston nafaqat o'zi o'rnak bo'lgan va tashabbus ko'rsatgan holatda ko'plab moliyaviy resurslarni taqdim etdi, balki BMTga a'zo boshqa davlatlarni global ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish yo'lida birlashish hamda unda ishtirok etishga chaqirdi.

2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasi qabul qilindi. Bu ham O'zbekiston etakchisi tomonidan ilgari surilgan tashabbusning amaliy natijasidir. Ellikdan ziyod davlatlar mazkur rezolyusiyaning hammuallifi bo'ldi. Uni BMTga a'zo barcha mamlakatlar bir ovozdan qo'llab-quvvatladi. Bu Prezident Shavkat Mirziyoevning tinchlik,

¹² <http://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoev-rahbarligida-ozbekiston-tashqi-siyosatida-yuksalish-roj-bermoqda>

o'zaro hurmat, bag'rikenglik va integrasiyani ilgari surishga qaratilgan tashabbuslarining xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishidir. Binobarin, bundan ko'zlangan maqsad diniy erkinlikni ta'minlash, bu boradagi huquqlarni himoya qilishdir.

“Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyusiyasining qabul qilinishi O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyodagi ijobiy jarayonlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirofiga aylandi.

AQShning nufuzli “The National Interest” jurnalida chop etilgan maqolada ana shunday fikr bildiriladi.

Maqola muallifi — taniqli tahlilchi, Amerika tashqi siyosat bo'yicha kengashi (“American Foreign Policy Council”) vise-prezidenti Ilan Bermanning yozishicha, 2016 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganidan so'ng Shavkat Mirziyoev mamlakat hayotining barcha jabhasini qamrab olgan tub islohotlarni boshladi. Mazkur jarayonni yagona tizimga solgan hujjat sifatida 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qayd etiladi.

“Shavkat Mirziyoev boshchiligida mamlakat eski siyosiy traektoriyadan uzoqlashib, mutlaqo yangi jarayonni boshdan kechirmoqda. Xususan, iqtisodiy sohada respublika xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun qator muhim qarorlarni qabul qildi, ular orasida xorijiy valyuta harakati ustidan nazoratni engillashtirish alohida o'rin tutdi. Natijada qisqa muddatda ichki hamda tashqi savdo hajmi ortdi, o'zbek ishbilarmonlari va kompaniyalari milliardlab dollarlik shartnoma hamda bitimlarni imzoladilar”,¹³ deyiladi materialda.

Siyosiy jabhada amalga oshirilgan o'zgarishlar haqida so'z ketganda, muallif sud tizimi mustaqilligining mustahkamlanishi, xavfsizlik organlari faoliyatining tartibga keltirilishi, fuqarolar huquqlari himoyasining ortishini alohida ta'kidlaydi.

¹³ <http://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoev-rahbarligida-ozbekiston-tashqi-siyosatida-yuksalish-roj-bermoqda>

Ilgari xalqaro tashkilotlarning tavsiya va takliflarini “ichki ishlarga aralashuv” sifatida baholab kelgan O‘zbekiston “Human Rights Watch” instituti hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari bilan munosabatlarda ochiqlik namoyon etayotganiga yuqori baho beradi.

“Tashqi siyosatda Shavkat Mirziyoev ma‘muriyati Markaziy Osiyoni o‘zining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab oldi. Buning natijasi o‘laroq, chorak asrlik tortishuv va bo‘linishlardan so‘ng o‘tgan ikki yil mintaqaning besh davlati o‘rtasidagi aloqalarning misli ko‘rilmagan faollashuvi davri bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekistonning qo‘shni mamlakatlar bilan transport hamda infratuzilma sohasidagi hamkorligi ham yangi o‘sish sur‘atini ko‘rsatdi”, deb yozadi Ilan Berman.

Tashqi siyosiy jabhada O‘zbekiston rahbariyati uzoq muddatga mo‘ljallangan ulkan rejalarni ko‘zlayotganini bildirarkan, mutaxassis “Shavkat Mirziyoev amalga oshirayotgan o‘zgarishlar nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham qo‘llab-quvvatlanmoqda”, deb ta‘kidlaydi. Shu ma‘noda, tahlilchi o‘tgan yili Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Markaziy Osiyo, bu yil esa Toshkentda Afg‘oniston bo‘yicha yirik xalqaro konferensiyalar tashkil qilinganini eslatib o‘tadi.

“O‘zbekiston Prezidentining Amerika Qo‘shma Shtatlariga yaqinda amalga oshirgan rasmiy tashrifi ushbu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu tashrif Shavkat Mirziyoevga o‘z mamlakati kelajagiga qarashini dunyo bilan bo‘lishish, sarmoyalar jalb etish va davlatning xalqaro obro‘cini orttirish uchun imkoniyat yaratdi”, deydi “American Foreign Policy Council” vise-prezidenti.

Ta‘lim, fan va madaniyat soxasidagi hamkorliklar ham ajoyib samaralar bermoqda. Universitetlar va boshqa o‘quv yurtlarimiz zamonaviy uskunalar va qo‘llanmalar bilan ta‘minlanmoqda, ko‘pchilik kurslar taniqli jahon olimlari tomonidan o‘qilmoqda va malaka oshirmoqda.

1.3. Hozirgi davr halqaro munosabatlarning g'oyaviy-mafkuraviy tasnifi.

Dunyo o'zgarishlari mazmuni umumiy yondashuvlarga, murosa va hamjihatlikka erishishga da'vat etuvchilar bilan xususiy haqiqat tarafdorlari, ya'ni faqat o'z manfaatlari yo'lida kurashuvchilar o'rtasidagi baxs-munozara keskinligining tobora ortib borishi bilan izohlanmoqda. Insoniyat yakdil fikr qilish, umumiy sa'y-harakatlarga erishish, siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ziddiyatlarni faqat yalpi bartaraf etish uchun kurashish zarurligining zamon taqozosi ekanligini tobora ravshanroq anglamoqda. Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv, ya'ni, umumiylik jarayonlarining mushtarak qismi sifatida namoyon bo'layotgan g'arbona demokratlashuv sharq xalqlari hayotiga muayyan qiyinchiliklar orqali tomir otmoqda. Bu yo'lda xar bir davlat o'ziga xos murakkabliklar davrini o'tashiga, ba'zan esa kutilgan natijalarning mutlaqo teskari holatlariga ro'para bo'lib qolishiga ham to'g'ri kelmoqda. Agar demokratiyaning asosiy talablaridan bo'lgan inson haq-huquqlarini teng ta'minlash va uni adolatli himoyalash zarurati an'anaviy buddaviylik diniga sig'inuvchi mamlakatlarda, xususan, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Tailand singari davlatlarda bir qadar silliq kechayotgan bo'lsa, islom qonunlari barqaror bo'lgan Sharq mamlakatlarida bu jarayon jiddiy kataklizmlar, siyosiy bo'hronlar, og'ir yo'qotishlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Ayni chog'da ta'kidlash zarurki, hayot rivoji qonuniyatlarining beto'xtov amal qilishi hamma erda ham o'zgarishlar muqarrarligini qayta-qayta tasdiqlamoqda. Eng muhimi mazkur o'zgarishlarni umumjahon globallashuv jarayonlarining uzviy jihati sifatida anglash darajalarining turli xilda ekanligi muammoning samarali echilishiga asosiy to'siq turib qolmoqda. G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyatidan farq qilib, Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa inson sha'ni, obru-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Ma'naviy talablar esa o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini mutanosiblashtirishni, birining ketidan mantiqiy ravishda ikkinchisini qo'yishni taqozo etgan. Hususan otaga ehtirom, ona e'zozi, aka va uka hurmati,

qavmu-qarindoshlar totuvligi, qo'ni-qo'shnilar ahilligi qadriyatlar sifatida muayyan ketma-ketlikda, qadrlanish darajasiga ko'ra ierarxik shaklda hayotdan o'rin olib kelgan. Sharq xalqlari turmush tarzi murakkabliklari to'g'risida o'lmas obidalar yozib qoldirgan qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiy dunyo barqarorligi faqat moddiy boyliklarning teng taqsimlanishigagina emas, balki umum tomonidan e'tirof etilgan tengsizliklarga tayanishga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Biz bugun yalpi tenglik uchun kurash harakati muayyan ma'naviy qadriyatlarning narxi pasayishi, insoniylik, ezgulik singari tamoyillar ahamiyatining susayishiga olib kelganligidan qat'iy nazar, g'arb mamlakatlari uchun umumiy yuksak taraqqiyotga erishish imkoniyatlarini tug'dirganligini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Ayni chog'da yalpi tenglikka erishish jarayonlari oqibatida odamlararo munosabatlardagi iliqlik, ma'naviy qadriyatlarning narxi pasayishi, samimiyat, ezgulik, hamdardlik singari tamoyillarning hayotdagi ahamiyati susayishiga olib kelganligini ham unutmasligimiz zarurdir. Bugungi g'arb dunyosi uchun individualizm, egoizm, konformizm, marginallik, shafqatsizlik xususiyatlarining shaxs sifatlariga aylanib qolayotganligini ommaviy axborot vositalari tashvishlanib qayd etmoqda. Taraqqiyot ehtiyoji xalqlarda milliy g'oyani katta ijtimoiy siyosiy zarurat darajasiga chiqazadi. Milliy g'oyaning bosh maqsadi ham odamlarni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirishdan iboratdir. Halqimiz jamoaviy tabiatli ekanligi bois, azaldan birlashishga moyil bo'lib kelgan. Ammo, bu birlashish aksariyat hollarda muayyan urug', hudud, qavm doirasidan yuqoriga chiqqan olmagan. Tashqi dushmanlar esa xalqimizning ana shunday tarqoq birlashuvlaridan ustalik bilan foydalanib kelganlar. Bir urug' yoki muayyan xududga qilingan tahdidni boshqa urug' o'ziga keyinroq muqarrar keluvchi tahdid tarzida etarli darajada anglamagan. Tariximizning deyarli barcha davrlarida yuz bergan fojealar tarqoqligimiz, millat darajasida birlashmaganimiz oqibatida yuz berib kelgan. Istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilgan tinimsiz sa'y-harakatlar natijasida xalqimizning uzoq tarixi mobaynida nihoyat milliy birlashuvga erishdik. Bu birlashuv goh mahalliy, goh mintaqaviy va goh global taxdidlar og'ushida og'ir sinovlar jarayonida katta

qiyinchiliklar bilan qaror toptirildi. Shunday qilib, ta'kidlash joizki, milliy g'oya dastavval birlashtirish mohiyatiga ega bo'lgan maqsadlarni taqozo etadi. Shu boisdan yurtboshimiz «biz avvalambor qanday jamiyat qurmoqdamiz, o'z kelajagimizni qanday tasavvur etamiz, degan savollarga o'z javoblarimizni aniqlashtirib olishimiz, shundan keyin odamlarimizni ana shunday oliyjanob maqsadlar atrofida birlashtirishimiz zarur»¹⁴ degan edi.

Demokratiya tizimining pirovard maqsadi insonlar orzu-umidlarini ruyobga chiqarish ekan, milliy g'oya bu maqsadga odamlarni ezgulik yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, demokratiya odamlarni turli siyosiy qarashlar, mazhablar, qiziqishlar, intilishlar, kayfiyatlar, etnik o'ziga xosliklar negizida birlashib harakat qilishlarini taqozo etsa, milliy g'oya alohida uyushgan fuqarolarni yagona maqsad darajasida jamlanib harakatlanishiga ma'naviy zamin hozirlaydi. Ma'lumki, insonning yoshlik davri hayotiy hodisalarga turlicha yondashuvlar, ikkilanishlar, aniq pozisiya, munosabatning etishmasligi kabi holatlar ta'sirida kechadi. Bu davrda yoshlarning dunyoqarashi shakllanishini, kelgusidagi hayotiy yo'lini belgilab olishda tashqi omillarning, ayniqsa unga bevosita ta'sir ko'rsatadigan oila, maktab va jamiyatning o'rni katta bo'ladi. Sharq allomalari aynan bu davrni "majnunlik davri" deb ataydilar. Shuning uchun ham inson ongli va eng oliy mavjudot hisoblansada, har doim ham ijtimoiy hayotdagi o'pnini, ump mohiyatini, mavjudlik uchun mas'ulligini hap doim to'g'pi idpok etavepmaydi. Inson ikki tomonlama, ziddiyatli, hatto oliy dapajada qutbiy mavjudotdip. U ilohiy va hayvoniy, yuqopi va past, epkin va qul, yuksalish va tubanlashishga ham, pok muhabbat va fidoyilikka ham, buyuk yovuzlik va cheksiz atonizmga ham moyildip. Uning qalbida ikki kuch – yaxshilik va yomonlik jihatlarining doimiy kurashi davom etadi. Mana bunday vaziyatda nafaqat inson, u hayot kechirayotgan ijtimoiy muhit, jamiyatning o'zi ham kurashlardan xoli bo'la olmaydi. Insoniyat tarixida turli xil g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar ko'plab kuzatilgan. Ularning ba'zilarida ezgulik, ayrimlarida esa vayronkorlik ruhiyatidagi kuchlar g'olib kelgan. Ayniqsa, kishilik taraqqiyoti rivojlanib borgani sayin bunday kurashlar

¹⁴ Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-tom, 465-b.

avjiga chiqqan boshlagan. Dunyoning hozirgi murakkab va sertshtvish manzarasining zamirida ham mana shunday jarayonlar turadi. O'zbek xalqining o'ziga xos mentalitetini, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassam qilgan milliy g'oya bunday vaziyatda asosiy kurash vositamizga aylanib bormoqda. Mafkuraviy kurashlar va nizolar kuchayib borgani sayin uning yangidan yangi turlari ommalashib bormoqda. Mana shunday ko'rinishlaridan biri yoshlarimiz orasida keng tarqalayotgan "ommaviy madaniyat"dir. "Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni kommunistik mafkura va ahloq normalaridan voz kechilgandan so'ng, jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak"¹⁵, – degan edi I.Karimov. "Ommaviy madaniyat"ning targ'ibotchi va homiylari, ularning ortida turgan kuchlap katta mablag' va zamonaviy qupol-aslahalapga, ilg'op texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatlapiga ega. Lekin ular soxta «gumanizm» g'oyalariga burkanib, zimdan eng xavfli uslub, insonning ongini egallashga intilmoqdalar. Ularning bu tutgan uslubi milliy qadriyatlapimizga to'g'ri kelmaydigan, ayniqsa, yosh avlodning ongi va tafakkupini zahaplaydigan buzg'unchi mafkupadip. Jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy sohasida "ommaviy madaniyat"ga, u olib kelayotgan ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlariga qarshi kurash asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Oz bo'lsada mafkuraviy kurashlardan chiqarilgan xulosa, ularning oqibatidan orttirilgan tajriba va boshqa davlatlar, xalqlarning bu boradagi yo'qotishlaridan olingan ibrat mustaqil fikrlovchi, hurfikr, talabchan didli odamlar qancha ko'p bo'lsa, ommaviy madaniyatning bozori shuncha kasod bo'lishini isbotlamoqda. Bunday vaziyatlardan chiqib keta olish, avvalombor uning oldini olish uchun intilishdan boshlanadi. Bu borada milliy ma'naviyatning shakllanishi va rivoji odatda uch tarkibiy bosqichda namoyon bo'ladi. Birinchi bosqich - insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma'naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an'analar, diniy-ruhiy tuyg'ulardan iborat. Bu

¹⁵ Karimov I.A Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir. "O'zbekiston", 2007. 22-b.

bo'g'inda u oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati, yurti bilan birligini, uning tarkibiy qismi ekanligini his etadi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bu jarayonda shaxsda haqiqiy fuqarolik tuyg'ulari shakllanadi. Mafkura ko'rinishidagi ikkinchi bosqich ma'lumot, axborot to'plash, asosan so'z, mulohaza, ibrat, g'oya va nazariyalar darajasida ifodalanadi. Inson ma'naviy meros, qadriyatlar bilan tanishadi va ularni o'zlashtiradi, yangilikni dunyoqarashiga singdiradi. Bu - ishonch bo'g'inidir. Taassufki, yoshlarimizda ma'naviy merosimiz haqidagi bilimlar hamon sayozligicha qolib ketmoqda. Uchinchi bosqich – bilim, ijodiy izlanish bilan belgilanadi. U odamlarning tafakkurida ma'rifat, dunyoviy ma'naviyat timsolida namoyon bo'ladi. Buyuk allomalarimizning qudrati ana shu dunyoviy ma'naviyatni diniy bilimlar, ma'naviyat bilan uzviylikda kamolga etkazganliklaridadir. Demak, ma'naviyatimizga, kelajagimizga “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar rahna solib turar ekan, bizning bu boradagi vazifalarining metodolgik asosini bunday kurashlarda orttirilgan tajribalarni, yangiliklarni qabul qilish, qadriyatlarga, ajdodlar ruhiga tayanish va yangiliklarning ijodiy ravnaqini tarbiyalash bo'lishi zarur.

Globalashuv jarayonlari eng ilg'or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish, tezkor zamonaviy kommunikasiya va aloqa vositalari orqali axborot sohasining rivojlanishi va odamlarning boshqa faoliyatlari uchun ham qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Ammo, globalashuv jarayonlarining hozirgi dunyoda bir qator ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan jihatlari ham mavjud. Bular qatorida, avvalo, madaniyat va uning bosh tomirini tashkil etgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat jiddiy e'tiborni talab etadi. Shu jihatdan globalashuvga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob, deya ta'rif berish ham mumkin. Bugungi kunda ular har qayday mamlakat, xususan, O'zbekiston uchun olg'a harakat qilishning samarali sharti, jamiyat ma'naviy-axloqiy sog'lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga bo'lgan umid tayanchini tashkil etadi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Globalashuv faqat tarixiy taraqqiyot

mantig'i bilan bog'liq tabiiy jarayonmi yoki uni kimningdir irodasi ham boshqaryaptimi? Bugungi kunda kuchli, etakchi davlatlar qatoriga asosan G'arb davlatlari kirishi hamda ikki qutbli dunyo barham topishi bilan ular yakka hukmronlikka intilayotgani ma'lum. Rus olimi V.L.Inozemsev bu borada shunday yozadi: "Globallashuv, aslini olganda, ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan "umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi yagona tamaddunning shakllanish jarayonini emas, balki mutlaqo o'zga holatni – jamiyatning "g'arbona" modelining ekspansiyasini va dunyoning ana shu modelga moslashishini ifodalaydi. Bugun globallashuv deb atashayotgan jarayonni, g'arblashtirish, deya aniqroq ifodalash mumkin"¹⁶. Albatta, G'arb ilm-fani yutuqlaridan foydalanish, yangi zamonaviy texnologiyalarini o'zlashtirish, bu borada hamkorlik qilish mumkin va zarur. Ammo, modernizasiyalash yo'lida G'arb madaniyatini va qadriyatlarini ham to'liqligicha o'zlashtirishga harakat qilgan mamlakat qator muammolarga duch kelganligi tarixdan ma'lum. Bunday "tajriba" natijasida o'zining qaysi madaniyatga mansubligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, o'zligini anglashdan mahrum bo'lgan jamiyat, ichki ziddiyatlarga to'la davlat shakllanadi. Shuning uchun, minglab yillik tarixga ega bo'lgan davlatlar madaniy o'ziga xoslikni saqlagan holda, davlat va jamiyatni modernizasiyalash yo'lini tanlagan va g'arblashmay turib taraqqiyotga erishmoqda. Lekin, bu G'arb davlatlarini qoniqtirmasligi aniq. Jahon iqtisodiyoti va siyosatida hakamlikni da'vo qilayotgan kuchli davlatlar dunyoga egalik qilishning eng nozik va shu bilan birga eng kuchli vositasini ham ishga solmoqda. Bu madaniyat sohasidagi gegemonlikka intilish. Globallashuvning zamonaviy "liberallari" "demokratiya", "inson huquqlari" kabi muqaddas qadriyatlarni niqob qilib olib, xalqlarni mahalliy manfaatlari, azaliy qadriyatlari, axloq normalari va an'analaridan izchillik bilan uzoqlashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlamoda. Milliy madaniyat o'rniga "umumjahon madaniyati" sifatida taqdim etilayotgan "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi bu madaniyatni amerikacha yashash tarzi, daromadni maksimal ko'paytirish g'oyasiga

¹⁶ Inozemsev V.L. Vesternizasiya kak globalizasiya i "globalizasiya" kak amerikanizasiya. // "Voprosy filosofii", 2004. №4. - S. 60.

sadoqat asosida shakllangan, Makdonald yoki Koka-kola singari kompaniyalar ramzida o'z ifodasini topgan "iste'molchilik madaniyati" deb nomlash mumkin. Shu o'rinda "iste'mol", "iste'molchi" bilan "iste'molchilik madaniyati", "iste'molchilik kayfiyati" tushunchalari o'rtasidagi chegarani belgilash kerak bo'ladi. Albatta, inson avvalo iste'molchi ekanligini rad etib bo'lmaydi. Biroq, iste'molchilik madaniyati kishidagi eng past instinktlarga suyanadi, ularni qo'zg'aydi, iste'molchilik kayfiyatini uyg'otishga qaratiladi. Iste'molchilik kayfiyatiga berilgan inson esa barcha narsaga foyda nuqtai nazaridan yondoshadi. Ezgulik, muruvvat, mehr, muhabbat, Vatan, xalq, o'zgalar taqdiri uchun javobgarlik kabi tuyg'u va tushunchalar "qorinni to'ydirmaydigan" behuda dardisarga aylanadi. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov: "...Jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak"¹⁷ ligini alohida ta'kidlab o'tdi. Iste'molchilik kayfiyati o'zagini tashkil etgan ommaviy madaniyat asl kishilik madaniyatiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini butunlay buzadigan va oxir-oqibat insonni jon saqlashdan o'zga maqsadi bo'lmagan jonzot, hayvon darajasiga, tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Shuning uchun, YuNESKO tashkilotining so'nggi yillarda turli xalq va hududlarning moddiy madaniy yodgorliklarini saqlash bilan bir qatorda, milliy urfodat, an'ana kabi nomoddiy madaniyatini asrab-avaylash masalasiga alohida e'tibor qaratayotgani bejiz emas. G'arb libosidagi ommaviy madaniyat intervensiyasi, tabiiy ravishda, millatlarning, xalqlarning, milliy madaniyatlarning himoyalanihga chog'laydi va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Faqat yuksak ma'naviyatga, ming yillik madaniy merosga suyangan xalq, davlatgina taraqqiyotga erishishi mumkinligi bugungi kunda tobora ravshan haqiqatga aylanmoqda. O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridayoq ayni shu yo'lni tanladi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, Amerika va umuman, G'arb dunyosi o'zi kavlagan chuqurga o'zi tushmoqda. Masalan, amerikalik taniqli faylasuf va siyosiy sharhlovchi P.J. Byukenen "G'arbning halokati" kitobida o'z yurtining (va umuman G'arb dunyosining) tanazzulini avvalo, madaniyatning emirilayotgani, azaliy urf-odatlarining yo'qolayotgani, asrlar davomida e'zozlab kelingan qadriyatlarning toptalayotgani bilan bog'laydi va bunday ishlarning tepasida turgan "madaniy inqilobchilar"ni "zamonamiz tolibonlari" deb ataydi. G'arb mutaxassislarining o'z mamlakatlarida sodir bo'layotgan jarayonlar haqidagi fikr-mulohazalari asosida xulosa qilish mumkinki, globallashtirish jarayonlarini boshqarib, dunyoga egalik qilishga intilayotganlar o'zlar uchun tayyorlagan oshni o'zlari "aylanib ham, o'rgilib ham" ichishga majbur bo'lmoqda. Turli millat va xalqlarning keng ma'nodagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik ideallari mavjud va ularni avaylab-asrash, ularga tayangan holda odamlar hayotini tartibga solish insonparvar jamiyatning asosiy belgilaridan birini tashkil etgan. Ayniqsa, bugungi kunda, etakchilikni da'vo qilayotgan davlatlar daromad olish va iste'molchilik kayfiyatiga qaratilgan tuban qadriyatlarni asl qadriyat sifatida dunyo xalqlariga taqdim etayotgan bir sharoitda, unga qarshilik ko'rsatish hamda milliy madaniy-ma'naviy ildizlarni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashtirishning eng dolzarb bo'lgan madaniyatlararo munosabatlardagi bu tendensiyalari bizning davrimizda ziddiyat ko'rinishini kasb etmoqda. Insoniyat dunyoning rang-barangligi asosidagi birligini anglasa, tan olsa, milliy va umuminsoniylikni optimal darajasida birlashtira olsa, integrasiyalashuv jarayonining zamini yashovchan va mustahkam bo'ladi. Olomon didiga mos "ommaviy madaniyat" esa kishini insonlik martabasidan mahrum etadigan va demak, insoniyat tamadduni zaminini o'ldiradigan zahri qatil vazifasini o'tamoqda.

III-BOB. O'ZBEKISTONDA GLOBALLASHUV VA INTEGRASIYALASHUV JARAYONIDA INSON MANFAATLARINI TA'MINLASH VAZIFALARI.

2.1. Jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvning inson va jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimida namoyon bo'lishi

Mustaqillik tufayli O'zbekiston ijtimoiy hayoti rivojlanishi mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslana boshladi. Bu rivojlanish va taraqqiyot uchun g'oyaviy jihatdan cheksiz imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, insonlar salohiyatidan foydalanish, u yoki bu muammoni «bir xil», «belgilab qo'yilgan» standart, reja, andozalar asosida emas, uning turli xil yo'llarini, shart-sharoitlarini, omillarini hisobga olgan holda yondashib hal etish imkoniyatini berdi. Buni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotni izchillik bilan modernizatsiyalash jarayonlarida ko'rish mumkin. Masalan, mulkning xilmaxilligi g'oyasini e'tirof etilishi va unga o'tilganligi, iqtisod sohasining erkin rivojlanishi uchun milliy g'oya va mafkurani hayotga tadbiiq etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda turli xil siyosiy va ijtimoiy institutlar faoliyat yurita boshlaganligi ularga o'z g'oyasi va mafkurasi bilan bog'liq hayot muammolarining echimiga qarashga, turli xil yo'llarini izlashga sharoit yaratilmoqda!? Plyuralizm asosida shakllanayotgan siyosiy muhit turli xil fikrlarni, g'oyalarning yuzaga chiqishiga, jamiyatni mafkuralar xilmaxilligi asosida rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilmokda. Eng muhimi, demokratik ijtimoiy ideal, goya va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik yangicha konseptual asosda, munosabatda o'zining echimini topa boshladi. Inson ongi va tafakkurining jamiyat hayotiga faol ta'siri bilan bog'liq yangi g'oyalar, qarashlarning ustuvor ahamiyatiga e'tibor berila boshlandi. Bunga nazariy-metodologik jihatdan yondashganda uni I.A.Karimovning «ong va tafakkur o'zgarmasa hayot o'zgarmaydi»¹⁸ degan g'oyaviy konseptual fikrida aniq ko'rish mumkin. Bu g'oya va jamiyat munosabatida shakllangan an'anaviy karashlarni

¹⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: O'zbekiston, 2008. –118 b.

ham yangicha idrok etilishiga undaydi, g'oya va mafkuraviy qarashlarning jamiyat hayotiga taʼsiriga alohida ahamiyat berishga olib keladi. Jamiyat hayotida ayrim g'oyalarni aqidaga aylantirish qanchalik nosog'lom muhitni, qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lsa, bunyodkor, ezgu g'oyalarning jamiyat taraqqiyotiga yo'naltiruvchilik kuchini anglamaslik demokratik g'oyalarning ma'nosiga zid holatdir. Bu oddiy haqiqatni anglamayotgan, bizni tanlagan yo'limizdan qaytarishga urinayotgan nosog'lom, jangari guruhlar faoliyati bilan bog'liq g'oyalar hamon uchrab turibdi. Ular demokratik tafakkur, mafkuralar xilmaxilligini e'tirof etishdan yiroq, aqidaparast kuchlardir. «Aqidaparastlik» g'oyasi milliy g'oyaga ham, mafkuralar xilmaxilligi g'oyasiga ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Chunki, ularning ongida va tafakkurida ayrim aqidani oxirgi haqiqat deb qabul qilish orqali, undan bilib yoki bilmasdan tajovuzkorlik maqsadida foydalanishga urinish mavjud!? Shuning uchun ham har bir inson o'zida demokratik ong va tafakkurni, g'oyani shakllantirishi muhimdir. «Demokratik tafakkur jamiyatni har qanday diniy aqidaparastlik og'usi ta'siridan forig' etishga kodir». Demokratik tafakkur esa ochiq jamiyat tamoyillariga, mafkuralar, g'oyalar xilmaxilligiga asoslanadi. Unga amal qilish ijtimoiy hayotning muhim asosidir. Uning milliy negizlariga alohida ahamiyat berish lozim. Jamiyatda fuqarolarimizning mustaqil va erkin fikrlash, bahsmunozara yuritish ko'nikmalarini oshirishga e'tiborni qaratish, demokratik tamoyillar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni uzviylikda ko'rish va idrok etish madaniyatini, mas'uliyatini shakllantirish muhimdir. Yuqoridagilar yoshlarning ongi, dunyoqarashini faollashtirish, qat'iy shakllantirish ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida amalga oshirish zarur ekanligini ko'rsatadi. Buning uchun esa diniy aqidaparastlik, xalqaro terrorizmga qarshi ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy qadriyatlar yordamida kurashishda quyidagi bir necha murakkab tushuncha, kategoriya, istilohlar, atamalarning ilmiy-falsafiy, kategorial va mafkuraviy-g'oyaviy funksional ma'nosi, ahamiyati haqidagi yoshlarning to'g'ri, hozirjavob dunyoqarashini shakllantirish zarur. O'zbekiston Respublikasi konstitusion qonunlari hamda huquqiy-siyosiy fanlar atamaları orasida "E'tiqod, vijdon erkinligi" tushunchasi va kategoriyasi bor. Ular

asosida "E'tiqodiy bag'ri kenglik" tushunchasi to'g'risida gapirish mumkin. Bu hol tasodifiy emas. Chunki, a) dinlar qonunlarga binoan faoliyat ko'rsatadilar, ular orasidagi aloqa, munosabatlar ham qonunlar bilan tartibga solinadi. Diniy tashkilotlar istagan, ayniqsa nojo'ya, siyosiy, ekstremistik xatti-harakat qilishga haqli emaslar. Dinlararo munosabatlar mafkura yoki shaxsiy kechinmalar asosida emas, balki qonunlar orasida tartibga solinadi, boshqariladi; b) dinlarga, ayniqsa, u yoki bu mazhablar g'oya, maqsad, shiorlariga e'tiqodiy bag'ri kenglik ko'rsatish, insoniy adlu insof yuzasidan munosabatda bo'lish, bo'lmaslik esa har bir fuqaroning shaxsiy, ichki vijdoniy-e'tiqodiy, axloqiy ishi, fuqarolik erkinligidir. Natijada, uning tahlili va xulosasiga ko'ra mamlakatning makroiqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan yalpi rivojlanishi vaziyatni bir xilda strategik g'oyalarni ishlab chiqqan holda baholash uchun sharoit yaratiladi. Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoev olib borayotgan tadbirlar asosida mamlakatni boshqarishning strategik rivojlanish mezonlari va prinsiplari, milliy mafkuraning asosiy qoidalari ishlab chiqildi va amaliyot mezoni bo'lib qoldi. Milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda mamlakat rahbarining roli milliy manfaatlar in'ikosi jarayoni bilan ham belgilanadi. Milliy manfaatlar in'ikosi shaxs, ayrim ijtimoiy qatlamlar va guruhlar hamda jamiyat manfaatlari majmuidir. Ularni aniq tushunish hamda ta'riflash uchun tegishli qoida, g'oya va mafkura yaratish uchun davlatni boshqarish amaliyoti, xalqaro munosabatlarda qatnashish tajribasi bo'lishi kerak. Davlat rahbari milliy manfaatlarni himoya qilibgina qolmay, ularga konkret shakl baxsh etadi. Aniq shaklda ifodalangan, davlat yordamida shakllantirilgan hamda asoslangan milliy mafkura yo'lyo'riq va xattiharakatning tegishli mezonlarini rivojlantirish omili sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, amaliyotga «aylanish» uchun mafkuraviy ta'minlanganlik zarurligini yuzaga keltiradi. Milliy manfaat milliy rivojlanishning strategik extiyojlarini talqin qilish jarayonida jamiyatni boshqarish piramidasi cho'qqisidan turib anglaniladi. Mustaqillik yillarida millatimizning, ayniksa, yoshlarning jipsligi kuchaydi. Tafakkurimiz yuksaldi. Darhaqiqat, bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ma'naviy binosi mustahkam bo'lishi lozim. Bu

esa, eng avvalo, fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni chuqur bilimli; teran fikrli, o'z o'tmishi durdonalaridan va ma'naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, haqiqatparvar, fidoyi qilib tarbiyalashni taqazo egadi. Komil inson shaxsini tarbiyalash esa eng murakkab va kiyin jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirish ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Demak, bugungi yosh avlod o'z tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini, tilini, dinini va urf-odatlarini mukammal bilsagina, mustaqillikning asl mohiyatini chuqurroq anglab etadilar. Milliy istiqlol mafkurasi ham ana shu milliy qadriyatlarimizga asoslanib yaratilishi bejiz emas. Bu o'rinda Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning «Har bir fuqaro ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkuramizning bosh maksadidir», deganlarni ayni muddaodir. Xo'sh, milliy qadriyatlarning bosh yo'nalishi va g'oyalarini hamda yaratuvchilarini kimlar tashkil qilgan? Ular haqida yoshlarimizdagi tasavvur va bilim darajasi qanday? Qayd qilish lozim, o'rta asrlar uyg'onish davri bunyodkorlari bo'lmish allomalar bizning ajdodlarimiz ekanligidan ming bora faxrlanamiz. Axir, jahonda XI asrdan boshlab, hanuzgacha algebra fani asoschisi Muhammad al-Xorazmiy nomi ulug'lanadi. Hozirgi zamonda kosmik kemalar, havo transporti, hisoblash texnikasi, kompyuterlar, ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar apgoritm qoidasi asosida ishlaydi. Bu matematik usulni birinchi bo'lib al-Xorazmiy yaratgan. Abu Nasr Forobiy inson aqliy va ijodiy faoliyatining takomillasha borishida musiqiy ohanglarning fizikaviy holatiga asos soldi. U musiqaning matematik nazariyasini yaratdi. Geodeziya, minerologiya, farmognoziya ilmlarini birinchi bo'lib Abu Rayhon Beruniy kashf etdi. Shoh va alloma olim Mirzo Ulug'bek osmon jismlari quyosh, oy, sayyoralar, yulduzlar harakatidagi o'ziga xos tomonlarini chuqur o'rganib, yangi 30 ilmiy xulosalar chiqardi. Oy harakati nazariyasini yaratdi, matematikani yanada boyitdi. Yangi kalendarlar tuzdi, unga to'laqonli ilmiy izohlar berdi. Falsafiy tafakkurni dunyoviy bilimlar bilan boyitishda al-Xorazmiy, Ulug'bek, Forobiy, Ibn Sino jahon tibbiyoti

asoschisi kabi olimlar. Ahmad Yassaviy, Kubro, Naqshband kabi mutassaviflar, al-Buxoriy, at-Termiziy kabi muhaddislar va Navoiy, Bedil kabi badiiy tafakkur sohiblari katta hissa qo'shdilar. Yana yuzlab allomalarimiz haqida to'liqlanib gapiramiz. Chunonchi, Ahmad Farg'oniy suv o'lchovi birligi hamda globusni yaratgan bo'lsa, az-Zamaxshariy arab tili grammatikasini vujudga keltirdi, B.Marg'inoniy fiqh (huquq) ilmini yangi qarashlar bilan boyitdi. Bunday buyuk yaratuvchanlik milliy qadriyatlarimiz sifatida ulug'lanar ekan, ularni o'rganish, o'zlashtirish yoshlarimizning eng birinchi, dolzarb vazifasi bo'lmog'i kerak. Ularda bu qadriyatlarimizga bo'lgan munosabat o'zgardi. Axir, fanlarni o'zlashtirishda milliy qadriyatlarimizning roli nechog'lik buyuk ekanligiga, allomalarimizning asos solgan ilmiy-nazariy xulosalarini yuqorida qayd qilganimizdek, bilishimiz nihoyatda zarur. Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga etkazish va singdirishda tarix fani alohida ahamiyat kasb etadi. Uni o'qitish jarayonida milliy g'oya va mafkura, milliy qadriyatlarimiz orqali singdirib boriladi. Chunki xalqning ma'naviy va moddiy merosi bo'lmish an'analar, urf-odatlar, marosimlar, imon-e'tiqodi asrlar osha saqlanib qoldi va mukammallashib tarixga aylandi. Umuman olganda, milliy kadriyatlarimiz axloq, odob, ishonch, mehr-shafqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga zamin ekanligini yoshlar ongiga singdirib borishimiz nihoyatda lozim. O'zligini anglagan, "avlod-ajdodining kimligini, tarixini, nasl-nasabini bilgan shaxsda – o'z xalqi, millati bilan faxrlanish hissi uyg'onadi. Demak, bugungi davr talabi yoshlar dunyoqarashida yuksak dunyoviy tasavvurlarni shakllantirishda xalqimizning boy merosi, milliy g'oya va mafkurasidan to'g'ri foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirishda aholi, jumladan, yoshlarning faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda esa, mafkuraviy omil muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, xalqimizni birlashtiradigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy g'oyani shakllantirish va uni yoshlar ongiga singdirish mafkuraviy sohadagi dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Oldimizga qo'yilgan olijanob

maqsadmuddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalaniish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda".¹⁹ Albatta, milliy g'oyaning shakllanishi va rivojlanishini qandaydir muayyan tarixiy vaqt bilan chegaralash qiyin. Chunki, mafkuraviy saha ham ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridan biridir. Bu esa o'z navbatida, mafkuraviy faoliyat ham uzluksiz jarayon ekanligini anglatadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Prezidenti «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etilib, unga quyidagi vazifalar belgilandi: - Milliy g'oya va mafkura bilan bog'liq muammolarni, mafkuraviy jarayonlarni tahlil etish va baholash, ustivor yo'nalishlarni aniqlash, ularning aholi qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga zid g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish; - amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini tahliliy materiallarning xulosalarini OAV orqali jamoatchilikka etkazish²⁰; - ma'naviyatning, milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari va bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish. Ko'rinadiki, «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qaror yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga ega bo'lib mazkur vazifalarni bajarish esa, milliy ziyolilarga, ayniqsa, soha vakillariga ulkan ma'suliyat yuklaydi. Ushbu nuqtai nazardan, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va unda milliy g'oyaning tutgan o'rni va rolini tahlil-tadqiq etish davrimizning dolzarb muammolariga kiradi va bu quyidagi omillar bilan belgilanadi: Birinchidan, aholining har qaysi toifasi va qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holdagi mafkuraviy faoliyat asosida ma'naviy

¹⁹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000. 3-bet.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori. Ma'rifat gazetasi. 2006. 68-son.

muhitni yuksaltirish diqqatimiz markazida turishi kerak. Bu esa, tabiiyki, alohida ijtimoiydemografik guruh bo'lgan yoshlarga ham bevosita taaluqlidir. Agar, mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak, yuqoridagi masalaning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik ekanligini ko'rish mumkin. Ikkinchidan, jamiyatimizni isloh etishning ma'naviy va mafkura sohasidagi eng asosiy vazifasi milliy qadriyatlarimizni tiklash, uni umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish, o'zligimizni anglash, milliy g'oyani shakllantirish, muqaddas dinimizni soxtalashtirishga yo'l qo'ymaslik, uning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va yoshlarga ta'sirchanligini kuchaytirishdir. Ijtimoiy-tarixiy amaliyot va nazariy tahlillar asosida aytish mumkinki, milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan har qanday davlat o'tish davrining murakkab qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun, albatta, uning tub maqsadlari va manfaatlarini ifodalaydigan mafkurasi ham mavjud bo'lmog'i lozim. Xalq ommasi, ayniqsa, yoshlar qaysi jamiyatda yashashidan qat'iy nazar nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir oliy ideallarga ergashib ish ko'rishi, faoliyat yurgizishi kerak. Ana shularni hisobga olgan holda Prezidentimiz Islom Karimov: "Oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiq etishdir"²¹, degan edi. Mustaqil O'zbekiston mafkurasi jamiyatimizning siyosiy va iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi ma'naviy hayotimiz rivojiga ham aniq maqsad va yo'nalish bermog'i lozim. Ma'naviyat mustaqillikning muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'naviyatning umrboqiyliigi, uning inson, xalq va millatning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrat manbai ekanligi barchaga, ayon. Ma'naviyat bo'lmagan joyda erkinlik ham, adolat ham bo'lmaydi. "Ma'naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarni qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirlarini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o'lchab ham, poyoniga etib ham bo'lmaydi.

²¹ Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T., 1993. 9-bet.

U inson uchun butun bir olam”²². Ma’lumki, mafkura inson ongiga uning qalbiga yo’l ochib, dunyoqarashiga ta’sir etuvchi qudratli g’oyaviy kuchdir.

Shuning uchun ham, hozirgi vaqtda global miqyosda turlicha maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi reaksiyon va progressiv mafkuralar o’rtasidagi kurashlar har qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan xavfliroqdir. Demak, har xil mafkuralarning ta’siriga berilmasligi uchun yoshlar mafkuraviy etuklikka ega bo’lishi zarur. Chunki, “g’oyaga qarshi faqat g’oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurashish mumkin”. Ana shulardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz yoshlarining tarbiyasini oqilona tashkil etish davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega bo’lmoqda: 1997 yil avgust oyida bo’lib o’tgan birinchi chaqiriq 9 sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da hamda O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonun (1997 yil) yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor berilgan. Shunga ko’ra, “Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta’minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma’rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi”²³. Xulosa sifatida aytganda, milliy g’oyaga asoslangan ma’naviy tarbiya aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olingan holda olib borilsa, mafkuraviy tarbiya o’z samarasini namoyon etadi.

Hozirgi davr halqaro munosabatlarning g’oyaviy mafkuraviy tasnifi, global va mintaqaviy mafkuraviy g’oyalarning rivojlanish tendensiyalari, milliy g’oyaning jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimida namoyon bo’lish xususiyatlari yoritib o’tilgan. Dunyo o’zgarishlari mazmuni umumiy yondashuvlarga, murosa va hamjihatlikka erishishga da’vat etuvchilar bilan xususiy haqiqat tarafdorlari, ya’ni

²² Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. T., 1996. 71-bet.

²³ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997. 24-25-bet.

faqat o'z manfaatlari yo'lida kurashuvchilar o'rtasidagi baxs-munozara keskinligining tobora ortib borishi bilan izohlanmoqda. Insoniyat yakdil fikr qilish, umumiy sa'y-harakatlarga erishish, siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ziddiyatlarni faqat yalpi bartaraf etish uchun kurashish zarurligining zamon taqozosi ekanligini tobora ravshanroq anglamoqda. Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv, ya'ni, umumiylik jarayonlarining mushtarak qismi sifatida namoyon bo'layotgan g'arbona demokratlashuv sharq xalqlari hayotiga muayyan qiyinchiliklar orqali tomir otmoqda. Bu yo'lida xar bir davlat o'ziga xos murakkabliklar davrini o'tashiga, ba'zan esa kutilgan natijalarning mutlaqo teskari holatlariga ro'para bo'lib qolishiga ham to'g'ri kelmoqda. Ayni chog'da ta'kidlash zarurki, hayot rivoji qonuniyatlarining beto'xtov amal qilishi hamma erda ham o'zgarishlar muqarrarligini qayta-qayta tasdiqlamoqda. Eng muhimi mazkur o'zgarishlarni umumjahon globallashuv jarayonlarining uzviy jihati sifatida anglash darajalarining turli xilda ekanligi muammoning samarali echilishiga asosiy to'siq turib qolmoqda. Globallashuv jarayonlari eng ilg'or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish, tezkor zamonaviy kommunikasiya va aloqa vositalari orqali axborot sohasining rivojlanishi va odamlarning boshqa faoliyatlari uchun ham qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Ammo, globallashuv jarayonlarining hozirgi dunyoda bir qator ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan jihatlari ham mavjud. Bular qatorida, avvalo, madaniyat va uning bosh tomirini tashkil etgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat jiddiy e'tiborni talab etadi. Shu jihatdan globallashuvga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob, deya ta'rif berish ham mumkin. Bugungi kunda ular har qayday mamlakat, xususan, O'zbekiston uchun olg'a harakat qilishning samarali sharti, jamiyat ma'naviy-axloqiy sog'lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga bo'lgan umid tayanchini tashkil etadi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Globallashuv faqat tarixiy taraqqiyot mantig'i bilan bog'liq tabiiy jarayonmi yoki uni kimningdir irodasi ham boshqaryaptimi? Bugungi kunda kuchli, etakchi davlatlar qatoriga asosan G'arb davlatlari kirishi hamda ikki qutbli dunyo barham

topishi bilan ular yakka hukmronlikka intilayotgani ma'lum. Rus olimi V.L.Inozemsev bu borada shunday yozadi: "Globallashuv, aslini olganda, ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan "umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi yagona tamaddunning shakllanish jarayonini emas, balki mutlaqo o'zga holatni – jamiyatning "g'arbona" modelining ekspansiyasini va dunyoning ana shu modelga moslashishini ifodalaydi. Bugun globallashuv deb atashayotgan jarayonni, g'arblashtirish, deya aniqroq ifodalash mumkin"²⁴. Mustaqillik tufayli O'zbekiston ijtimoiy hayoti rivojlanishi mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslana boshladi. Bu rivojlanish va taraqqiyot uchun g'oyaviy jihatdan cheksiz imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, insonlar salohiyatidan foydalanish, u yoki bu muammoni «bir xil», «belgilab qo'yilgan» standart, reja, andozalar asosida emas, uning turli xil yo'llarini, shart-sharoitlarini, omillarini hisobga olgan holda yondashib hal etish imkoniyatini berdi. Buni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotni izchillik bilan modernizatsiyalash jarayonlarida ko'rish mumkin. Masalan, mulkning xilma-xilligi g'oyasini e'tirof etilishi va unga o'tilganligi, iqtisod sohasining erkin rivojlanishi uchun milliy g'oya va mafkurani hayotga tadbiq etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda turli xil siyosiy va ijtimoiy institutlar faoliyat yurita boshlaganligi ularga o'z g'oyasi va mafkurasi bilan bog'liq hayot muammolarining echimiga qarashga, turli xil yo'llarini izlashga sharoit yaratilmoqda!? Plyuralizm asosida shakllanayotgan siyosiy muhit turli xil fikrlarni, g'oyalarning yuzaga chiqishiga, jamiyatni mafkuralar xilma-xilligi asosida rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilmokda. Eng muhimi, demokratik ijtimoiy ideal, goya va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik yangicha konseptual asosda, munosabatda o'zining echimini topa boshladi. Inson ongi va tafakkurining jamiyat hayotiga faol ta'siri bilan bog'liq yangi g'oyalar, qarashlarning ustuvor ahamiyatiga e'tibor berila boshlandi. Bunga nazariymetodologik jihatdan yondashganda uni I.A.Karimovning «ong va tafakkur o'zgarmasa hayot o'zgarmaydi» degan g'oyaviy konseptual fikrida aniq ko'rish mumkin. Bu g'oya

²⁴ Inozemsev V.L. Vesternizatsiya kak globalizatsiya i "globalizatsiya" kak amerikanizatsiya. // "Voprosy filosofii", 2004. №4. - S. 60.

va jamiyat munosabatida shakllangan an'anaviy qarashlarni ham yangicha idrok etilishiga undaydi, g'oya va mafkuraviy qarashlarning jamiyat hayotiga taʼsiriga alohida ahamiyat berishga olib keladi. Jamiyat hayotida ayrim g'oyalarni aqidaga aylantirish qanchalik nosog'lom muhitni, qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lsa, bunyodkor, ezgu g'oyalarning jamiyat taraqqiyotiga yo'naltiruvchilik kuchini anglamaslik demokratik g'oyalarning ma'nosiga zid holatdir. Bu oddiy haqiqatni anglamayotgan, bizni tanlagan yo'limizdan qaytarishga urinayotgan nosog'lom, jangari guruhlar faoliyati bilan bog'liq g'oyalar hamon uchrab turibdi. Ular demokratik tafakkur, mafkuralar xilma-xilligini e'tirof etishdan yiroq, aqidaparast kuchlardir. «Aqidaparastlik» g'oyasi milliy g'oyaga ham, mafkuralar xilma-xilligi g'oyasiga ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Chunki, ularning ongida va tafakkurida ayrim aqidani oxirgi haqiqat deb qabul qilish orqali, undan bilib yoki bilmasdan tajovuzkorlik maqsadida foydalanishga urinish mavjud.

2.2. Globallashuv sharoitida O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlashning usullari va vositalari.

Bugungi globallashuv va modernizasiya jarayonlarida hech bir jamiyat, davlat o'zicha yashay olmaydi. Shunday ekan, ularning ijobiy va salbiy ta'sirlari ijtimoiy hayotda, ayniqsa mamlakatning istiqbolini belgilashda o'z ta'sir kuchini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, turli yo'llar bilan yoshlarimizni o'z ta'sir doirasiga olishga uriniyotgan oqimlar, "ommaviy madaniyatlar" yoshlarimizda milliy o'zlikdan begonalashish, vatansizlik, loqaydlik va shu kabi illatlarni keltirib chiqarishga qaratilmoqda. Bunday zamonaviy taqdidlarga qarshi tura olish mamlakatning strategik maqsad va vazifalarini amalga oshirishda milliy g'oya va uning asosiy tamoyillaridan hisoblangan milliy ma'naviy meros va islom madaniyatidan baholi qudrat oqilona foydalanish zamon talabidir. Zero, «... tarbiyaviy - axloqiy masalalarda, ma'naviy hayotda, kerak bo'lsa, milliy manfaatlarimizga mos keladigan siyosatni izchil olib borishda o'z yo'limizni yo'qotmasligimiz uchun hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz darkor».²⁵ Mustaqillik ona-Vatanimizga va xalqimizga inson sifatida hayotdan bahra olib yashashi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib, el-yurt bo'lib, jahonda o'z o'rnini topishiga zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bularning bari imkoniyatlar darajasida qolib ketmasligi uchun har birimiz farzandlarimizni har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga etishishi uchun otabobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan tarixiy, diniy va milliy qadriyatlarimizni o'zimiz avvalo har tomonlama o'rganishimiz hamda boshqalarga targ'ib va tashviq qilishda doimo oldingi safda bo'lishimiz lozim. Shu bois Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, avvalo, "... milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i

²⁵ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, - T.: O'zbekiston, 2000. 526 b.

darkor.”²⁶ Ta’kidlash joizki, hozirgi kunda erishgan mustaqillik va erkinligimizga tahdid solayotgan ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turish uchun millatni millat, xalqni xalq qiladigan tarix sinovlaridan bir necha bora o’tgan madaniyatimiz va dinimizga asoslanishimiz lozim. Globallashuv insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integrasiyalashishi natijasida sodir bo’layotgan jarayonlarning olamshumul ahamiyat kasb etishidir. Globalizasiyaning xozirgi davrda uch manbai mavjud: kommunikasiya vositalaridagi tub o’zgarishlar; investisiyalardagi yangi jarayon; dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishini ta’minlashi, globalizasiyaga to’g’ri yondashuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlikni ta’minlaydi, davr zarbalaridan omon qolib yashash darajasini yuksaltiradi, ijtimoiy barqarorlikni, siyosiy mavqega egalikni ta’minlaydi, hamda qo’shni davlatlar nisbatan muloqot vositasi hisoblanadi. Shu ma’noda, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Globallashuv jarayonining yana bir o’ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o’tkazishning nihoyatda o’tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog’lom fikrleydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar”²⁷ deb yozadi. Globalizasiyaning takomillashib borishi, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tezlashtiradi. Ayniqsa, savdo, moliya va ishlab chiqarishni globalizasiyalashuvi davlatlar, korporasiya va shaxslararo aloqalarni kuchaytirdi, natijada xalqaro fuqarolik jamiyati shakllandi. Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot: - odamlar dunyoqarashining o’zgarishi, kommunikasiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta’siri kuchaytiradi; - davlatlar va xalqlar o’rtasida birlashishga intilishni kuchaytirgan, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an’analar va ma’naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko’rsatib berdi. Turli davlatlararo va hukumatga dahli bo’lmagan xalqaro tashkilotlarning ahamiyati oshib, dunyo yangi tizimga o’tishi davrida ularning faoliyatini qayta qurish va

²⁶ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, - T.: O’zbekiston, 2000. 526 b.

²⁷ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 113 b.

isloh etish ehtiyojini tug'dirdi. Dastlab xalqaro tashkilotlarning faoliyatlari asosan davlatlarning o'zaro murossasini ta'minlashga qaratilgan edi, xolos. Bugungi ahvol xalqaro tashkilotlardan eng yirik muammolarga ahamiyat berishni, jarayonlar ichiga kirib borishni, ta'sir doirasini kengaytirishni talab etmoqda. Biroq chuqurroq fikr yuritilganda, «globalizasiya» jahon taraqqiyotiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sir bilan bir qatorda chuqur tafovutlarni ham o'z ichiga oladiki, bu tafovutlarni e'tiborga olmasa, ular jahon inson taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Birinchidan, bu ba'zi mamlakatlarning texnologik yutuqlar sohasida mutlaq ilgirilikni qo'lga kiritganligi asnosida sayyoramiz zaxiralari ham, iqtisodiy faoliyat ham jahon miqyosida trannasional korporasiyalar tomonidan boshqarilishi tizimi shakllanayotgani va tobora mustahkamlanib borayotganligidadir. Ikkinchidan, hozirgi davrda globalizasiya dunyoda ijtimoiy tenglikka erishishni engillashtirmaydi, aksincha, buni qiyinlashtiradi, degan qarashlar ham bor. Globalizasiyani chetlab o'tish mumkin emas, u jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy jarayondir. Lekin globalizasiyaning jamiyatdagi muayyan unsurlar va tuzilmalarga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik XXI asr xalqlari va davlatlari oldida turgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Afsuski, yangi asr bo'sag'asida dunyo na to'la barqarorlik, na mutlaq ijtimoiy tenglik hukm surgani bilan maqtana oladi. Shu holni anglashning o'zi jamiyat taraqqiyotining samarali texnologiyalarini izlashni davom ettirishga undaydi. Global muammolarning kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi zarurati insoniyat jamiyati yangi sivilizasiyaviy sifat o'zgarishini taqozo etmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, bug'ungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidag'i globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Globallashuv jahon miqyosida kishilar o'rtasidagi milliy, diniy, madaniy aloqalar uchun shart-sharoitlar yaratadi.

2. Ilmiy texnik axborot, texnologiyalar, ilmiy-texnik yutuqlar bilan almashish orqali xalqaro miqyosda inson taraqqiyoti uchun beqiyos imkoniyatlar ochadi.

3. Globallashuvga xos katta imkoniyatlar va manfaatli jihatlarning mamlakatlar va odamlar o'rtasida keng taqsimlanishi, ilmiy texnika taraqqiyoti natijalarining ularni yaratuvchilari bo'lmagan mamlakatlarga kirib borishi, masalan, internetning behad imkoniyatlari bugungi kunda butun jahon bo'ylab ishlatilishi mumkin.

4. Global texnologik imkoniyatlar asosida inson taraqqiyotini taminlash, hamda qashshoqlikni bartaraf etish imkoniyatlari tug'iladi.

5. Globallashuv jahon taraqqiyotiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sir bilan ko'rsatadigan bir qatorda, ba'zi salbiy holatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu e'tiborga olmasa, jahonda insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar ro'y berish xavfi tug'iladi. Masalan, kiberterrorizm bunga misol bo'ladi. Global iqtisodiy jinoyatchilikning barcha shakllari-narkobiznes, jinoiy kapitallarni «yuvish», xalqaro korrupsiya bilan qat'iy kurashni uyushtirish. O'zbekiston o'zining bu strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun ko'plab tadbirlarni muvaffaqiyatli hayotga tadbiiq etmoqda. Bu maqsadga erishish har bir davlatning barqaror taraqqiyotga asoslangan milliy tizimini ishlab chiqishni talab etadi. XXI asrda umumbashariyatni mana shunday maqsad sari yo'naltirish hayotiy zaruriyatga aylandi. Bu vazifalarni mamlakatlar qanday bajarayotganligini nazorat qilish YuNISEFga yuklatilgan. YuNISEFning faoliyatini to'laqonli olib borishda ko'maklashayotgan "Innechenti" markazi xodimlari o'z tadqiqotlarida mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholining farovonligi oshib borganligini e'tirof etgan 42 holda, bu farovonlikning oshishi barqaror iqtisodiy o'sishga tayanganligini alohida qayd qiladilar. Ularning ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda yangi ichki mahsulotning o'sishi 2002 yilga kelib, 1989 yildagiga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi. Ayni chog'da bu ko'rsatkich Moldovada 34,8, Rossiyada 64,3, Qozog'istonda 85,6 foizga tengdir. O'zbekistonning bu darajaga erishuvining sababi: insonni ulug'lash va e'zozlash bilan cheklanmasdan, bu g'oyani bozor munosabatlariga

o'tish davri shart-sharoitlarida, qonun-qoidalari, harakat dasturi va uni ro'yobga chiqarish usullarida ham to'la aks ettira olganligida. Mana shu tamoyilga asoslanib, O'zbekiston o'ziga xos va mos yo'l tanladi. Bu yo'l "soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish - tanlab olingan yo'lning asosiy mazmun va mohiyatidir". Shuningdek, globallashuv O'zbekiston uchun qator umumbashariy muammolarni jahon hamjamiyati bilan birgalikda hal etishni ham vazifaga aylantiradi. Ular quyidagilar: - er yuzida yalpi tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o'rnatish; - atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo); - aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo); - er yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ishonchli ta'minlash; - ochlik, qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlanish va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish; - xavfli kasalliklarni tugatish; - inson haq-huquqlari va erkinligini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash; - jahon ma'naviy muhiti sofligini ta'minlash (etikologiya muammosi); - terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizmga, narkobiznesga qarshi kurash va boshqalar. Xullas, globallashuv va axborotlashuv barcha mamlakatlarning iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazadi va bu ta'sir ishchi kuchidan foydalanish, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarish va investisiyalarni jalb etish, ularning bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini, xalqaro teng huquqlar asosidagi rivojlanishni ta'minlaydi.

2.3. O'zbekistonda inson va uning qadrini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, hozirgi vaqtda bu jarayondan to'la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo'q. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. "XX asr so'ngida ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi. XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdan o'zgardi"²⁸.

Hozirgi davrda turli xil eski va yangi mafkura, g'oyalarning o'zaro kurashi har qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Bunga sabab socialistik totalitar tuzum emirilganidan keyin dunyoning ikki qarama-qarshi qutblarga bo'linishi barham topgan bo'lsa-da, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar, g'oyalar kurashi, tortishuvi hali to'xtagani yo'q. Bu kurashlardan maqsad inson, shu jumladan, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongi va tafakkuriga ta'sir o'tkazish, uni o'ziga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilishdan iboratdir. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy va siyosiy qaramliklardan ham ko'ra dahshatliroqdir. Shu boisdan mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tahdid, xavf-xatar, tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin. Ammo mafkuraviy, g'oyaviy xavfni, tazyiqni tezda ilg'ab olish, sezish nihoyatda qiyin. Inson o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy milliy qadriyatlarga, mustahkam irodaga ega bo'lmasa, jamiyatda xalqni yagona maqsad yo'lida birlashtiruvchi milliy g'oya va

²⁸ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. T.: „O'zbekiston“, 1998. — 240—241- betlar

mafkura mavjud bo'lmasa, uning turli zararli g'oya va mafkuralarning tazyiqiga bardosh berishi amri maholdir. Hozirgi davrda O'zbekistonda «...jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'diradigan mafkuraviy tahdidlar quyidagilardan iborat:

-islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;

-yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi; -tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;

-ahloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar;

-turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar»²⁹. Bunday g'oyaviy, mafkuraviy tahdidlar insonlar va xalqning qalbi, ongini zabt etishga, ularni o'z milliy va ma'naviy, madaniy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizasiya yutuqlaridan mahrum qilishga, pirovard natijasida mamlakatni o'zlariga qaram qilib olishga qaratilgandir.

Shu boisdan g'oyaviy, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik xavfsizlik tabiat va insonning o'zaro munosabatlaridagi muayyan qonuniyatlarning buzilishi oqibatida yuzaga keladigan ekologik falokatlarning oldini olishga qaratilgandir. Ekologik xavf-xatar, falokatlar insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmasdan, tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralaridan vahshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslanib xo'jalik faoliyatini yuritish oqibatida yuzaga kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati to'g'risida gapirib «Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson bilan tabiatning o'zaro ta'siriga oid bir qator muammolarni hal etish faqat bir mamlakat doirasida cheklanib qola olmaydi. Ularni butun sayyoramiz ko'lamida hal qilish zarur. Ko'rinib turibdiki, tabiiy muhitni inson yuritadigan xo'jalik faoliyatining zararli ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq ko'pgina muammolar keng ko'lam kasb etadi. Shu sababli ular faqat

²⁹ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., O'zbekiston, 2000. 41-b.

xalqaro hamkorlik asosida hal qilinishi lozim»³⁰, -deb ta'kidlagan. Demak, ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi bo'lishi bilan bir qatorda global ahamiyatga va tavsifga egadir. Iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalaydi. Informasion xavfsizlik yuqorida tavsiflangan milliy xavfsizlikning barcha shakllarini, ayniqsa, g'oyaviy, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, milliy xavfsizlik tushunchasi ko'p qirrali va xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ammo shunga qaramay, milliy xavfsizlik tushunchasi quyidagi xususiyatlarga ega. Birinchidan, milliy xavfsizlik aniq tarixiy mazmunga ega, ya'ni jamiyatga qaysi sohalarda va qanday darajada tahdidlarning vujudga kelayotganligini aniqlashga qaratilgan aniq holatlardagi aniq tahlillarni talab qiladi. Ikkinchidan, milliy xavfsizlik bir-biriga zid o'lchamlar, jamiyatga xavf soladigan tahdidlar va ularni bartaraf etishni tavsiflaydigan ijtimoiy-iqtisodiy parametrlar va ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Uchinchidan, milliy xavfsizlik muammosining ahamiyati va keskinligi jahon hamjamiyati hamda ayrim mamlakat, hudud taraqqiyotining burilish davrlarida g'oyat o'sib ketadi. To'rtinchidan, milliy xavfsizlik tomoyillari va parametrlari, ko'rsatkichlari o'zgaruvchan hamda turli mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ammo shunga qaramasdan har bir mamlakatning milliy xavfsizligi insoniyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining umumiy tendensiyalari bilan bog'liqdir. Shuningdek, umumbashariy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar milliy xavfsizlikka ta'sir o'tkazib turadi. Beshinchidan, milliy xavfsizlik tushunchasiga milliy davlat manfaatlari va milliy g'oya, milliy mafkura ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oltinchidan, milliy xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy xavfsizlik muhim o'rin tutadi. Chunki milliy xavfsizlikni, shu jumladan mamlakatning siyosiy, konstitusion tuzumini, davlat mustaqilligini va suverenitetini saqlash, harbiy qudratini oshirish, ekologik muammolarni yumshatish va hal etish avvalambor, mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga va

³⁰ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., O'zbekiston, 1997 yil 115-116-b.

qudratiga, uning iqtisodiy xavfsizligining qay darajada ta'minlanganligiga bog'liqdir. XX asrning oxirlariga kelib, «xavfsizlik» va «milliy xavfsizlik» tushunchalari bizning leksikonimizda tez-tez qo'llanila boshlandi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg'in qurollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatning og'irlashganligi, yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum emirilganidan keyin dunyoning qaramaqarshi qutblarga bo'linishi barham topgandan keyingi davlatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o'zgarishlar 47 xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi. Xavfsizlik tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, turlicha ma'noda talqin etiladi. Shunga qaramasdan ularda umumiy g'oya ham mavjud bo'lib, bunga ko'ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalaniish, kafolatlanish ma'nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavfxatar namoyon bo'lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmalar, portlashlar va larzalar, krizislar, tangliklar, revolyusiya, qo'zg'olon, isyon, urush, qurolli to'qnashuvlar kiradi. Xavfsizlik ko'p qirrali bo'lib, u butun insoniyat, davlat yoki iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi, rivojlanishi uchun noxush, salbiy, zararli ta'sirlardan, xavf-xatarlardan saqlanish, himoyalaniish holatini ifodalaydi. Xavfsizlik umumiy tarzda ziyon etkazish uchun potensial sharoitlarning yo'qligini, saqlanishlik, himoyalaniish va ishonchlilikni anglatadi. Bu tushuncha kishilar va jamiyat hayot faoliyatining aniq spesifik sohalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo'lmasin ularning barchasi umuiylik xususiyatiga egadir. Umuman xavfsizlik xavf-xatardan himoyalaniish sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat hayotfaoliyatining normal amal qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi³¹.

³¹ Qarang: *Ekonomicheskaya bezopasnost' xozyaystvennykh sistem. Uchebnik.* –M., Izd-vo RAGS, 2001- s.7.

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash faoliyati davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xalqaro hayotga taalluqli bo'lgan tarmoqlarni yanada rivojlantirish va o'rnatishdan iborat. Bundan tashqari, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashning maxsus normativli, tashkiliy va moddiy xususiyatga ega bo'lgan kafolatlari mavjuddir. Xalqaro nizolarda va tinchlik yo'li bilan barqarorlashtirishda va mavjud jamoa xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashda tashkiliy kafolatlar tashkil etiladi. Moddiy kafolatlarga qurollashtirilishning cheklanishi va qurolsizlantirish kabi choralar kiradi. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llabquvvatlashda maxsus vakolatga BMT egadir. U Nizomining 1-moddasiga asosan xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash va shu maqsadsa uning oldini olishda effektli jamoa choralari qo'llashda tinchlik yo'li bilan xalqaro tinchlikni ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. Milliy xavfsizlik manfaatlarini himoyalashning umumiy shakli bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, u manfaat ehtiyojlarining namoyon bo'lish shakli hamdir. Boshqacha aytganda, manfaat ehtiyojlarini qondirish va moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi tasavvurlarning jamisini ifodalaydi. Milliy xavfsizlik fuqarolar, ya'ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shaxs, fuqaro manfaatlarini konstitutsion huquq va erkinliklarini, yashash xavfsizligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, jismoniy ma'naviy, intellektual rivojlanishdan iborat. Jamiyat manfaatlarini demokratiyani mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlash, aholining yaratuvchilik faolligini oshirish va uning barcha ijtimoiy va etnik guruhlarining ma'naviy rivojlanishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Davlat manfaatlarini esa konstitutsion tuzumni, mamlakat suvereniteti va territorial yaxlitligini himoya qilishni, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirish, qonunlarning so'zsiz amal qilishini ta'minlash, huquq tartibotni qo'llabquvvatlash va teng sheriklik asosida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Ushbu manfaatlar bir-birlari bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ular jamiyat a'zolarining mustaqilligini ta'minlash, xalq

farovonligi va turmush darajasini oshirish, uning madaniyatini ma'naviy qadriyatlarini saqlashga bo'lgan intilishlarini ifodalaydi.

Shu boisdan har qanday mamlakat manfaatlari uchta muhim maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi:

- 1) xalq farovonligini oshirish;
- 2) mamlakat hayot faoliyatini va hududini himoya qilish hamda obod etish;
- 3) milliy madaniyatni rivojlantirish.

O'zbekistonda milliy xavfsizlik milliy mafkura bilan hamohangdir. Chunki «...milliy istiqloq mafkurasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruhlar va qatlamlarning - butun xalqimizning quyidagi umumiy manfaatlarini ifodalaydi: - mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlar daxlsizligi; - yurtning tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informasion tahdidlardan muhofaza etilishi; - mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash; - har bir oila va butun xalqning farovonligi; - jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi»³². Ushbu manfaatlar milliy davlat manfaatini tashkil etadi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy, informasion va boshqa omillar hamda tahdidlardan himoya qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu boisdan milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lib, siyosiy, harbiy-mudofaa, g'oyaviy, iqtisodiy, ekologik, informasion xavfsizliklarni o'z ichiga oladi. Siyosiy xavfsizlik mamlakatning milliy-davlat tuzilishini, konstitusion tuzumni himoya qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Harbiy-mudofaa xavfsizligi mamlakat mustaqilligi, hududiy

³² Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., O'zbekiston, 2000 - 45-b. 50

XULOSA

Mazkur ishda O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga integrasiyalashuvida siyosiy munosabatlar va integrasiya jarayonini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, integrasiya jarayoni tushunchasi, mohiyati va mazmuni, ilmiy metodologik jihatdan o'rganildi va taxlil qilindi. integrasiyaning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari ijtimoiy-falsafiy tahlil etildi. "Integrasiya", "mafkuraviy jarayon" va "sivilizasiya" tushunchalari o'rtasidagi farqli va umumiy jihatlarni aniqlash orqali, ularning mazmunini ochib berishga va ta'riflariga oydinlik kiritishga, O'zbekistonning siyosiy-mafkuraviy munosabatlar tizimini ochib berishga xarakat qilindi. Integrasiya – juda keng ma'nodagi tushuncha. Bugungi kunga kelib kishilar integrasiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, zarur. Integrasiya-o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integrasiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. Integrasiya jarayonlari tashkillashtirilgan sistemalarda bo'lishi mumkin – bu holda ular sistema butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko'taradi. Integrasiya jarayonlari oldin bog'lanmagan elementlarni biriktirish asosini hamda shakllangan sistemalarda ham yuz berib, natijada sistemani bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o'rtasida aloqadorlikka murakkablashuviga olib keladi.

XXI asrning dastlabki o'n yilligida siyosiy, iqtisodiy, ilm-fan, madaniyat sohasida insoniyat tomonidan ulkan taraqqiyot natijalariga erishilgan bo'lsada, afsuski, global tinchlik va barqarorlikka tahdid solib turgan jiddiy xavf-xatarlar ham saqlanib qolmoqda. Insoniyat taraqqiyotining ko'p mingyillik tajribasiga qaramasdan, urush olovini yoqishga, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib qolishga urinayotgan qora kuchlar sayyoramizning turli burchaklarida hanuzgacha o'zlarining qabih niyatlariga erishish yo'lida goh oshkora, goh pinhona faoliyat olib bormoqda. Xalqlar, millatlarning xavfsizligi, tinch va farovon turmush kechirish borasidaga orzuistaklariga rahna soladigan turli salbiy ofat manbalarining mavjud ekani butun bashariyatni xavotirga solmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom

Karimov ta'kidlaganidek, „Bugungi dunyoda jadal o'zgarib borayotgan vaziyat va jarayonlar, mavjud mojarolarning keskinlashuvi va yangi qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, ba'zi mintaqalarda etnik va konfessiyalararo tafovutlar negazida Yadroviy texnologiyalar va ommaviy qirg'in qurollarjning tarqalib ketish xavfi, murosasizlik, radikalizm va ekstremizmning o'sishi, yangi keskin o'zgarishlarning paydo bo'lishi dunyo hamjamiyatida katta tashvshi uyg'otmoqda. Vujudga kelayotgan to'qnashuvlarning kuchayishi, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqqisodiy inqirozi hamda uning oqibatlari jiddiy tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda³³“ Darhaqiqat, dunyoda, Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ularning geosiyosiy manzarasi dunyoning iqqisodiy va ma'naviy imkoniyatlariga, jahon hamjamiyatining istiqboliga yangicha nazar tashlashga undamoqda.

Binobarin, g'oyalar kurashi va mafkuralar raqobati uzluksiz, muntazam davom etadi. Bular bari inson ongi va ong osti qatlamlariga, uning qalbi va ruhiga yo'l izlaydi. Odamlarning ma'naviy hayotiga singib ketgan mafkura ushbu kurashda g'olib keladi. Demak, geosiyosatda u yoki bu kuchning qo'li ustun kelishi tobora mafkura va ma'naviyat sohasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Mamlakat va millat taqdiri bilan bog'liq jarayonlarda fuqarolarning toza e'tiqod, xushyorlik va mas'uliyat bilan harakat qilishi, yaxshini yomondan, aslni soxtadan farqlay olishi ma'naviyat darajasining mezoni sifatida maydonga chiqadi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish jamiyat hayotining eng nozik jihatlaridan, yoshlarning milliy his-tuyg'ulari, maqsad va intilishlari, ma'naviy ma'rifiy va ruhiy-ahloqiy darajasiga bevosita bog'liq hodisa. Shunday ekan, yoshlarimiz yot mafkuralarning «mehribonligi», «xolisligi» va «betarafligi», «yoqimlilik», “do'stonaligi” ortida nima yotganini anglay bilishlari lozim. Ya'ni, ularning zamirida muntazam taktikasini o'zgartirib turuvchi jonsarak aqidaparastlik targ'iboti turganini tanishga, tushunishga o'rgatib borish kerak. Har bir fuqaro, yigit-qiz, o'quv guruhi, mahalla ahlining mafkuraviy immunitetini besh

³³ Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish — bizning bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim ma'ruzasi. — „Xalq so'zi“ gazetasi, 2012 yil 8 dekabr. 57

darajada baholash mumkin. birinchi, quyi daraja – fuqaro, yoshlar milliy g'oyamiz mohiyatidan xabardor emas; ikkinchi daraja – xabardor, lekin milliy g'oya chuqur anglanmagan, kundalik hatti-harakat asosi, motivlariga aylanmagan; uchinchi daraja – bilimlar bor, lekin ular nazariy bo'lib, fuqaro, yoshlarimiz ularni kundalik hayotda qo'llashga qiynaladilar; to'rtinchi daraja – milliy g'oya anglangan, g'oyaviy ta'sirni shaxsiy va milliy manfaatlar uyg'unligidan kelib chiqib baholay oladi: ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi asosli salbiy munosabat – immunitetni namoyon qila oladi, biroq, boshqalarni bu ishga da'vat qilmaydi; beshinchi daraja – fuqaro, yoshlar milliy g'oyani o'z e'tiqodiga aylantirgan va buni hamma joyda, doimo amalda qo'llamoqda, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarga faol qarshi kurashadi, boshqalarni ham shunga faol da'vat qiladi. Mafkuraviy immuniteti yuksak darajada shakllangan fuqaro atrofida gilarni ham g'oyaviy tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi. O'zi va millati uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997.
3. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1989
4. “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instiuti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. // Xalq so'zi. 1998 y. 27 iyul
5. “Muzeylar faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. // Xalq so'zi, 1998 y. 12 yanvar
6. “O'zbekiston Respublikasida me'morchilik va shaharsozlikni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoni. // Xalq so'zi. 2000 y. 26 aprel
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
10. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4- jild.–T.:O'zbekiston,1996.
11. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O'zbekiston, 1997.
12. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent : Sharq, 1998.
13. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. – T.: O'zbekiston, 1998.
14. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: 61 O'zbekiston, 1999.

15. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O‘zbekiston, 2000.
16. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz. 9-jild. – T.: O‘zbekiston, 2001.
17. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. – T.: O‘zbekiston, 2002.
18. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11- jild. – T.: O‘zbekiston, 2003.
19. Karimov I.A. Tinchlik va havfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat‘iy irodamizga bog‘liq. 12 - jild. T.: “O‘zbekiston” 2004.
20. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech kimga, hech qachon qaram bo‘lmaydi. 13-jild. – T.: O‘zbekiston, 2005.
21. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va halqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – T.: O‘zbekiston, 2007.
22. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. 16-jild. – T.: O‘zbekiston, 2008.
23. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. - Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
24. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
25. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O‘zbekiston, 2009. II. Risolalar va monografiyalar.
26. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri SHavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqi.09.09.2016 www.press-service.uz.
27. Mirziyoev SH.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini taminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.07.12.16www.press-service.uz.
28. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil,qat‘iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar fajliyanining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.2017 yil.16 yanvar. //www.uza.uz.

29. Mirziyoev SH.M. 2017 yil 4 avgustda O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. www.press-service.uz.

30. A'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilish tajribasi.-T.: Ma'naviyat, 2000.

31. Alimova D. A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri; Mas'ul muharrir: B. Qosimov ; O'zR Prez. huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. - Toshkent : Akademiya, 1999. 62

32. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.: Universitet, 2007.

33. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild.-T.: Fan, 1968.

34. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati [Text] : etnotarixiy lavhalar; O'zR Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unti, O'zbekiston Tarixi Davlat muzeyi. - Toshkent : O'qituvchi, 2003.

35. Jaloliddin Rumiy. Ichingdagi Ichindadur. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.

36. Jalolov A. O'zbekiston: mustaqillik, ma'naviyat, mafkura.-T.: O'zbekiston, 1994.

37. Jo'raev N. Tarix falsafasi: tushuncha, mohiyat va siyosat.-T.: Ma'naviyat, 1996.

38. Karim T. Milliy tafakkur taraqqiyotidan ("Avesto" zamonlaridan to XXI asr boshlarigacha): falsafiy maqolalar. - Toshkent : Cho'lpon, 2003.

39. Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar... : milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar / A. Ibrohimov; So'zboshi: I. G'afurov. - Toshkent : Sharq, 1999.

40. Ismoilov S. Qadimgi Xorazm qal'alari: amudaryoning o'ng sohili bo'ylab / S. Ismoilov; muhar. A. Ortiqboev. - 2-chi nashri. - Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.

41. Islomov Z. Shayx Xovand Tahur yodgorlik majmuasi: istoricheskaya literatura / Z. Islomov, D. Maqsudov ; O'zR Vazirlar mahkamasi huzuridagi Toshkent davlat islom un-ti, Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. - Toshkent : Toshkent islom universiteti, 2005.

42. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari.-T.: Sharq, 1996.
43. Norxo'jaev F. Tarixiy va madaniy yodgorliklar - xalq boyligi. - T., 1982.
44. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya).-T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004.
45. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat.-T.: Sharq, 2001.
46. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi.-T.: Cho'lpon, 1993.
47. Mirzaaliev, E. Yu. Tarix - ma'naviyat ko'zgusi; Mas'ul muharrir I. Yu. Yusupov ; Namangan viloyati hokimligining madaniyat va sport ishlari boshqarmasi, Namangan viloyati o'lkani o'rganish muzeyi, Viloyat "Xotira va qadrlash" muzeyi. - Namangan : Namangan, 2006. 63
48. Mustaqillik. Izohli ilmiy- ommabop lug'at.-T.: Sharq, 2000.
49. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi.-T.:Akademiya, 2005.
50. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar.-T.: Yangi asr avlodi, 2001.
51. Rahmonov R. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira; mas'ul muharrir S. Shermuxamedov; taqrizchilar: M. Hasanov, N. Safarova. - Toshkent : O'zbekiston, 2008.
52. Rizo B. O'zbek tarixi- o'zlik tarixi: badia. - Toshkent : Yangi asr avlodi, 2001.
53. Fitrat Abdurauf. Rahbari najot.-T.: Sharq, 2001.
54. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993.
55. Shamsutdinov R. Istiqlol yo'lida shahid ketganlar; Mas'ul muharrir:Naim Karimov. - Toshkent : Sharq, 2001.
56. Shermuhamedov S., Ochildiev A. Madaniyat va sivilizasiya.-Farg'ona, 2000.
57. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.-T.:Sharq, 2001.

58. Yusupov E., Tulenov J., G'afurov Z. Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar.- T.: Fan, 1990.

59. O'zbekistonning yangi tarixi. Konseptual-metodologik muammolar. (Ilmiynazariy anjuman materiallari).-T.: Akademiya, 1998.

60. O'ljaeva Sh.M. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi: istoricheskaya literatura; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent kimyo-texnologiya in-ti. - Toshkent : Fan, 2005.

61. Qur'oni Karim. /Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur/.-T.: Cho'lpon, 1992.-495 b.

62. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan [Text] : monografiya / Sayyid Muhammad Xotamiy ; Tarj.: N.Qodirzoda. - Toshkent : Minhoj, 2003.

63. Hotamov G. Millat xotirasi: badia / G. Hotamov, Sh. Hamroev. - Toshkent : Yozuvchi, 1999.

64. Erkaev A. Ma'naviyat-millat nishoni. - 2-to'ldirilgan nashri. - Toshkent : Ma'naviyat, 1999.